

“O‘zimiznikidan ham bo‘lsin!”

Nima uchun o‘zimizning tarixiy kinolarimiz mazkur telekanal orqali efirga juda kam berilmoqda? To‘g‘ri, ba‘zilarida sobiq ittifoqning “hidi” kelib turgan bo‘lishi mumkin. Axir har bir film biror mafkuraga xizmat qilgan. Lekin, xalqimiz bir nechta kino orqali o‘sha davrni sog‘inadigan darajada sodda emas-ku.

2-bet

Abituriyentga psixolog yordam

Imtihonga qanday tayyorgarlik ko‘rish kerak va, eng muhimi, bunday holatlarda o‘zingizga qanday yordam berish mumkin?



3-bet

Ona tili va adabiyot qanday o‘qitilyapti?

kim o‘qityapti?

Ona tili barcha fanlarni o‘rganish asosi, adabiyot inson qalbining, tafakkurining muhandisidir. Mana shu vazifani uddalay olaman, degan mard marhamat qilib o‘qituvchilik qilaversin!

7-bet

Kuch – bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 1-iyul, chorshanba № 22 (9295)

Xalq ziyolilari gazetasi

Sinf rahbarini qog‘ozbozliklar qiynayapti



Sinf o‘quvchilari haqidagi ma‘lumotlar yig‘ma jildi:

- ✓ sinf o‘quvchilari haqida umumiy ma‘lumot;
- ✓ har bir o‘quvchining ijtimoiy pasporti;
- ✓ sinf faollari, o‘quvchilarning sog‘lig‘i, to‘garaklarga jalb etilganligi, darslik bilan ta‘minlanishi, choraklar davomida o‘zlashtirishi haqidagi ma‘lumotlar;
- ✓ sinf majlisi rejasi va qarorlari;
- ✓ ota-onalar majlisi rejasi va qarorlari;
- ✓ o‘quvchilar bilan alohida suhbat daftari;
- ✓ ota-onalar bilan o‘zaro suhbat daftari...

Zerikib ketdingiz-a! Sinf rahbari hujjatlarning bir qismi xolos bu!

2-bet

Bizni internetda ham kuzating! www.marifat.uz [/marifat.uz](https://www.facebook.com/marifat.uz) @marifatziyo



Ushbu sonda nemis tili, kimyo va geografiya fanlaridan test namunalari nashr qilinmoqda!

Obuna bo‘lishni unutmang!

O‘qituvchi nimani o‘ylaydi?



Attestatsiya deyilsa ko‘pchilik o‘qituvchilar o‘zini qo‘yarga joy topolmay qoladi. Qog‘ozbozlikning o‘zi deya nolishadi. Hayron qolaman, hamma joyda tartib-qoida har xilmikan? Men o‘tgan yili oliy toifa oldim. Hech qadai qiyinchilikka uchramadim. Qog‘ozbozlik deb nimani aytasizlar? Qilgan ishlaringiz, olgan sertifikat, diplom va chiqargan maqolalaringizni? Bular sizda bo‘lsa, muammo nimada? Insonning kamchiliklari o‘ziga bilinmagach, talablardan noliy boshlar ekan. Har qanday vaziyatda ham bilimli inson oxirigacha kurashadi va marraga yetadi. Yozg‘irish o‘rniga o‘zingizga boqing, hamkasbim!

Malak ZIYNATOVA

Ustamani o‘qituvchining chiqargan sinfi, o‘quvchi bilan ishlashi, seminarlarda dars o‘tishi, tashkil etgan ochiq darslari, o‘tkazgan tadbirlarining sifati, o‘zlashtirish samaradorligi va ish stajiga qarab maktab rahbarlari belgilashi kerak, deb o‘ylayman. Chunki rahbarlar qaysi o‘qituvchining qanday ishlayotganini juda yaxshi biladi. Hozirgi 823-qarorga ko‘ra, tizimida ko‘pchilik o‘qituvchilar sifatli dars o‘tish, bola bilan ko‘proq ishlash o‘rniga dars ommalashtirish, maqola yozish (ko‘p hollarda yozdirish) bilan ovora bo‘lib qolmoqdalar. Rahbarlar esa to‘ldirgan papkaga qarab ustama belgilashga majbur. Ayniqsa, yaxshi dars o‘tolmaydigan o‘qituvchilarning papkalari “semiz” ekan hayratlanarli.

Madinaxon NIZOMOVA

Yoshligimda piano chalishni orzu qilar edim. Ulg‘aysam, musiqa o‘qituvchisi bo‘laman va piano chalishni o‘rganib, bolalarga ham o‘rgataman deb o‘ylar edim. Asfus, musiqa emas matematika fani o‘qituvchisi bo‘ldim. Maktabimizda orzumdagi musiqa asbobi bor, ammo musiqa ustozim chalinmadi. Bolalar ham men kabi intiq. Prezidentimizning Namangandagi nutqi meni juda xursand qildi. Endi maktabni bitirayotgan o‘quvchilar hech bo‘lmaganda bitta cholg‘u asbobini chalishni bilishi talab etilarkan. Lekin maktabimizda sanoqli cholg‘u asboblari bor, musiqa ustozlari ham bitta.

Dilrabo XUDOYOROVA

2-iyul — Davlat gerbi qabul qilingan kun

Ozod va obod Vatanimiz timsoli

Moziyni, tarix zarvaraqlarida muhrlangan tarixiy xotirani yod etmasdan kelajakka boqib bo'lmas. Zero, "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi", degan naql bejiz aytilmagan. Tarixdan ma'lumki, bundan 100 yil muqaddam ajdodlarimiz, xalqimiz milliy mustaqilligi va tarixiy davlatchiligini yo'qotib, mustamlaka davlat sifatida chor Rossiyasi boshiga solgan ne-ne azob-u uqubatlarni boshidan kechirdi.

Azal-azaldan mehnatkash, zahmatkash xalqimiz tinch, erkin va farovon hayotga intilib yashagan. Mustaqillik ajdodlarimizning mana shu ezgu, yuksak maqsad yo'lidagi orzu-intilishlarini ro'yoga chiqardi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, davlat ramzlarining qabul qilinishi xalqimizning azaliy orzularining yorqin ifodasi bo'ldi. Davlatimiz ramzlari bugun har bir yurtidoshimiz uchun cheksiz faxr-u iftixor manbayiga aylandi desam, mubolag'a bo'lmaydi.

1992-yil 2-iyulda "O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risidagi" qonun qabul qilindi. Davlat gerbi tasviri shu sanadan boshlab mamlakatimizdagi barcha tashkilotlar binolari peshtoqlariga o'rnatildi. Oliy ramzimiz tasviri muhrlarda, davlat idoralari blankalarida, rasmiy nashrlarda, qog'oz va tanga pullarda, fuqarolik pasportlarida aks ettirildi.

Ozod va obod Vatanimiz timsoli — Davlatimiz gerbi ham yuksak g'oyaviy-tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lib, yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uni hurmat qilishlari shartdir. Biz davlatimiz ramzlarini e'zozlash orqali o'zimizni, millatimiz qadr-qimmatini ulug'lagan bo'lamiz.

M.BOZOROVA,
"Ma'rifat" targ'ibotchilari
jamiyati a'zosi

"O'zimiznikidan ham bo'lsin!"

Xabaringiz bor, 2019-yil 1-sentabrdan yurtimizning ko'hna va boy tarixidan hikoya qiluvchi yangi "O'zbekiston tarixi" telekanali tashkil qilindi. Prezidentimizning "O'zbekiston tarixi" telekanalini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, ushbu kanal "O'zbekkino" milliy agentligi bilan hamkorlikni mustahkamlashi, O'zbekiston va jahon tarixida yorqin iz qoldirgan voqealar hamda shaxslarga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy badiiy filmlarni muntazam namoyish qilishi, shuningdek, mamlakatimiz kino va san'at ustalari bilan hamkorlikda badiiy film, teleseriallar yaratishda ham ishtirok etishi kerak edi. Lekin afsuski, bu kanalda asosan chet el tarixiy filmlari namoyish etilmoqda.

Shu o'rinda bir nechta savol tug'iladi:

1. Nima uchun o'zimizning tarixiy kinolarimiz mazkur telekanal orqali e'fira juda kam berilmoqda? To'g'ri, ba'zilarida sobiq ittifoqning "hidi" kelib turgan bo'lishi mumkin. Axir har bir film biror mafkuraga xizmat qilgan. Lekin, xalqimiz bir nechta kino orqali o'sha davrga qaytishni xohlab qoladigan, o'sha davrni sog'inadigan darajada sodda emas-ku. Aksincha, zukko, dono xalq. Shunday ekan, kanal rahbariyatining "O'sha davr siyosatini qo'msab qolishi mumkin" degan xavotirlari noo'rin.

2. "O'zbekkino"da juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston tarixi" telekanali rahbariyati ham ular bilan aloqalarni yanada mustahkamlashi, arxivlarda qolgan, tokchalarida chang bosgan kartinalarni ekspertlar fikrlari bilan xalqimiz e'tiboriga havola etishni o'ylab ko'rish vaqti kelmadimikan?

Xo'sh, jamoatchilikning ushbu kanalda berilayotgan filmlar haqida fikri qanday? Bu kinolar xalqimizga qanchalik ma'qul kelayotganini bilish maqsadida "Facebook" ijtimoiy tarmog'ida qo'yilgan postga javoban quyidagicha izohlar qoldirildi:

Madina Mamasaidova:

— Tarixiy filmlarimizni yaxshi ko'raman. Bu kanal ochilganda endi tarixiy kinofilmlarni mazza qilib ko'raman degan edim. Lekin



afsuski, qayoqdagi chet el kinolarini qo'yib berishmoqda.

Laylo Do'syorova:

— Biz ko'rmagan ko'p kinolar bor ekan. Shularni qo'yishga yaxshi bo'lar edi. Kadrlar xira va oq-qora bo'lsa ham mayli. 9-mayda ko'pgina kinolarimiz borligini bildik.

"SheRxonblog" kanali asoschisi **Sherzod Nurmatov** ham o'zining feysbukdagi sahifasida kanal saviyasi haqida salbiy fikr bildirib o'tgan.

Nozimjonov kanalida ham "O'zbekiston tarixi"da namoyish etilayotgan filmlar kutilganidek emasligi haqida post qoldirilgan.

"O'zbekiston tarixi" telekanalida o'zimizning tariximizdan hikoya qiluvchi kino va seriallar namoyishini kutib qolamiz.

Yulduz ABDURASHIDOVA,
O'ZJOKU talabasi

O'qituvchi minbari



Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar biz o'qituvchilar uchun ancha yengilliklar yaratdi. Ish hujjatlari dastlab uchtaga, endi esa bittaga kamaytirilishi nazarda tutilmoqda. Barcha o'qituvchilarning dilidagi gaplar ijobat bo'layotganidan hamma xursand. Endi har bir o'qituvchi shijoat bilan o'z ustida ishlab, puxta bilim berishga harakat qiladi. Turli hujjatlarni to'ldirish o'miga darslarimizda AKT, pedagogik innovatsiyalar, turli interaktiv metodlarni qo'llab dars o'tish yo'llari bo'yicha izlanamiz.

Sinf rahbarini qog'ozbozliklar qiynayapti

O'qituvchi o'quvchiga o'z fanini o'rgatish bilan birga, qaysidir sinf o'quvchilariga rahbarlik qilib ular tarbiyasi, shaxsi bilan ham alohida shug'ullanadi. Sinf rahbaridan katta mas'uliyat talab qilinadi. U o'quvchilarining maktabga kelganidan to uya ketguniga qadar javobgar shaxsdir. Sinf rahbari o'z sinfi o'quvchilari bilan turli suhbatlar olib boradi. Ota-onalar bilan doim hamkor bo'ladi. Ammo hammani qiynaydigan holatlar borki, ta'lim sohasidagi islohotlar negadir bularni chetlab o'tayotgandek go'yo...

Sinf rahbari sifatida bir qancha hujjatlar yuritimiz. Bularning ayrimlari zarurligini bilib ishtiyoq bilan bajarsak, ayrimlari xo'jako'rsinga yuritiladi. Sinf rahbari sinf o'quvchilari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlarning yig'ma jildini tuzib chiqadi. Bu hujjatlarda o'quvchilar haqida to'liq ma'lumotlar o'z aksini topgan. Unda sinf o'quvchilari haqida umumiy ma'lumot, har bir o'quvchining ijtimoiy pasporti, sinf faollari, o'quvchilarning sog'ligi, to'garaklarga jalb etilganligi, darslik bilan ta'minlanishi, choraklar davomida o'zlashtirishi, sinf majlisi reja-si va qarorlari, ota-onalar majlisi reja-si va qarorlari (bu ro'yxatni yana davom ettiraversak bo'ladi) kabi hujjatlar saqlanadi. Ba'zi hujjatlar o'quvchilarni yanada yaqinroq bilish uchun kerak, ammo ularning orasida keraksiz va faqat vaqtimizni oladigan hujjatlar ham borki, bu barcha sinf rahbarining og'riqli nuqtasi bo'lib qolmoqda. Masalan, o'quvchilar bilan alohida suhbat daftarinu olaylik. Har bir o'quvchi bilan kun davomida uning kiyinishi, tartib-intizomi, darslarda ishtiroki haqida suhbatlashamiz. Ammo shu suhbatlarni yozma tarzda yuritib borish shartmi? Har kuni qaysi o'quvchi bilan nima haqida suhbat qilganimizni yozib boramiz. Endi tasavvur qiling, sinfda 30 o'quvchi bo'lsa, qancha suhbat yozishimiz kerak bo'ladi? Bundan tashqari, o'g'il bolalar bilan alohida va qizlar bilan alohida suhbat daftarlari mavjud. Bu daftarlarga ham yana o'sha suhbatlar takroran yoziladi.

Endi ota-onalar bilan o'zaro suhbat daftariga kelsak. Har doim ota-onalar bilan telefonda yoki yuzma-yuz nima haqida gaplashganimizni yozib borishimiz kerak. Shular shartmikan?! Sinf rahbari doim ota-ona bilan muloqotda bo'lib, ularni farzandining o'qishi, intizomi, maktabda o'zini tutishi, sinfdoshlari bilan munosabatlari haqida xabar-dor qilib turamiz. Xo'sh, shuni alohida daftarga yozib borish shartmi? Sinf rahbarining ota-ona bilan suhbatlashgan paytda balki daftarga yozib qo'yishga vaqti bo'lmas. Bu bilan hech kimning ishi yo'q! Chunki har chorakda biz qancha o'quvchi-yu uning ota-onasi bilan qancha suhbat qilganligimiz haqida hisobot topshirishimiz kerak. Ota-onasi chet elga ketgan o'quvchilar bilan alohida suhbat daftariga nima deysiz?! Alohida otasi yoki onasi chet elga ketgan o'quvchi bilan suhbatlashib turib, daftarga qayd etib borishimiz lozim. Uning otasi qayerga ketgan, nima uchun ketgan, farzandidan telefon orqali xabar olib turadimi?.. Haa... jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik daftari-yu, boshqa daftarlarni so'ramang. Go'yoki sinf rahbarining boshqa qiladigan ishi yo'qdek, axir u ham dars o'tishi kerak (bir nechta sinf o'quvchilariga!). Shuning uchun ham tajribali o'qituvchilar sinf rahbarlik qilishni xohlamaydilar. Bunday ortiqcha qog'ozbozlik kimga kerak?!

2020-yil o'quv yilida sinf rahbarlik hujjatlarini ham qayta ko'rib chiqib, ortiqchalarini qisqartirish vaqti keldi, nazarimizda. Sinf rahbarlari uchun ham aniq hujjatlarning ro'yxati ko'rib chiqilsa, biz o'qituvchilarning ishi yanada osonlashib, o'quvchi bilan ishlash uchun ko'proq vaqtimiz qolar edi.

Nilufar ORIPOVA,
G'ijduvon tumanidagi
27-maktabning tarix fani o'qituvchisi

Tavsiya

Abituriyentga psixologik yordam

Har qanday imtihon: kirish yoki bitiruv imtihoni bo'lsin, uni topshiradigan kishi uchun qiyin vaziyatdir. Imtihonga qanday tayyorgarlik ko'rish kerak va, eng muhimi, bunday holatlarda o'zingizga qanday yordam berish mumkin?

Eslab qolishning eng samarali usullari bormi?

√ Eslab qolishning ko'plab usullari mavjud: assotsiatsiyalar, sxemalar, rejalaridan foydalanish... Bu usullarning barchasi yaxshi va ular haqiqatan ham foydalidir. Odam yodlashning turli usullaridan foydalangan holda o'rganish jarayonida u uchun eng samarali bo'lgan "o'ziga xos" usulni o'zi aniqlab olishi muhim.

Kayolda emas, balki rejada, javobning o'ziga xosligiga e'tibor qaratish, shuningdek, javoblarni qog'ozda tasvirlar orqali belgilab olish samaraliroqdir.

Og'zaki imtihondan oldin javobni ko'zga oldida ovoz chiqarib aytib, tayyorlik darajasini tekshirish mumkin. Keyin maxsus xotira turi — nutq-motor xotirasi kiritilishi orqali materialni eslab qolish oson bo'ladi.

Hissiy barqarorligingizni qanday rivojlantirish kerak?

Emotsional barqarorlikni tarbiyalash uchun "Yarim soat menga

tegishli" mashqlari juda foydali va samarali bo'ladi.

Ushbu yarim soatni o'zingiz xohlagancha sarflang: shahar ko'chasi bo'yab sayr qiling, she'r yoki nasriy asar o'qing, musiqa tinglang, sevimli hayvoningiz bilan o'ynang, osmonga, daraxtlarga, ko'chada yurgan odamlarga qarang, ular nima deb o'ylaganlarini tasavvur etishga harakat qiling, dam oling. Ko'zlaringizni yumib o'tiring yoki aksincha, pauzani faol harakatlar bilan to'ldiring: ritmik musiqaga raqsga tushing. Asosiysi, siz bu yarim soatni faqat o'z xohishingiz bilan o'tkazasiz va ular sizga qoniqish va quvonch keltiradi. Hissiy barqarorlikning rivojlanishi, shuningdek, o'zini o'zi boshqarish uchun inson tomonidan yaratilgan o'zini o'zi boshqarish usullari ham yaxshi yordam beradi.

Imtihondan bir kun oldin nima bilan shug'ullanish samarali?

Imtihondan bir kun oldinni yaxshi jismoniy va ruhiy holatni



(shu jumladan, ehtiyot qismlarni) tayyorlash — arzimans narsalar uchun ortiqcha qayg'urmaslikka yordam beradi.

Imtihonlarga tayyorgarlik ko'rish uchun foydali sirlar:

• Insonga rangning ta'siri haqidagi psixologik bilimlardan foydalaning. Imtihonlarga tayyorgarlik jarayonida o'zingizni sariq va binafsha rangdagi narsalar bilan o'rash di intellektual qobiliyat va aqliy faoliyatingizni rag'batlantiradi.

• Imtihon oldidan foydalanishingiz mumkin bo'lgan yana bir usul: siz ... o'zingiz boshingizning orqa tomonidagi sochlardan biroz tortishingiz kerak (sochlaringizni qo'llaringizga olib, sekin va silliq qilib torting). Yoki hech bo'limganda boshingizni qismini massaj qiling. Natijada u yerda joylashgan ko'plab nuqtalar faollashadi. Ushbu oddiy usul fikrlashingizni sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

• Aromaterapiya imkoniyatlaridan foydalaning. Tabiiy hidlar insonning ruhiy holatini normalashtiradi, organizmda sodir bo'layotgan jarayonlarni muvozanatlashtiradi. Aqliy faoliyat

kuchayishiga, konsentratsiyaga limon, lavanda, bibariya, geranium, apelsinning xushbo'y hidlari yaxshi yordam beradi. Aroma lampalari uchun efir moylarining aralashmasi to'rt tomchi geranium, uch tomchi lavanda, ikki tomchi archa va bir tomchi kekik moyidan iborat bo'lib, asabiy taranglik va hayajonni yengishga yordam beradi. Faslag'an, lavanda, limon balzam, apelsin, atirgul, sandal daraxti, sadrning xushbo'y hidi dam olishga yordam beradi. Quyidagi aralashma ortiqcha stressdan xalos bo'lishga yordam beradi: lavanda — 4 tomchi, apelsin — 3 tomchi, geranium — 2 tomchi, bibariya — 1 tomchi.

• Shuningdek, siz stressni kulgi bilan yengishingiz mumkin. Malayziya olimlarining ta'kidlashicha, kulgi nafaqat hayotni uzaytiradi, balki stressni yengillashtiradi, ishtahani va ish faoliyatini yaxshilaydi hamda uyquni normalashtiradi. To'qqiz kun davomida 30 talaba imtihonlardan oldin kulgi terapiyasi kursidan o'tdilar. Ularga nafas olishning maxsus texnikalari o'rgatilgan. Trening davomida ko'ngillilar kuniga bir necha soat kulishdi. Natijada ular imtihonlarni hech qanday muammosiz, asabiylashishsiz topshirishdi. Talabalarning so'zlariga ko'ra, jismoniy jihatdan o'zlarini odatdagidan ancha yaxshi his qilishgan. Kulgi, shuningdek, qo'rquvga qarshi kurashning eng yaxshi usulidir.

Shoira DO'STUMHAMMEDOVA, psixologiya fanlari nomzodi

Taklif

Oliy o'quv yurtlariga kirishda 18 tadan imtihon bo'lishi kerak!

O'sib kelayotgan yosh avlodning kesklajamda qanday kasbni egallashiga qarab, Respublikamiz kelajagini tasavvur qilsa bo'ladi. Xuddi shu ma'noda yoshlarning ta'lim-tarbiyasi har bir ota-ona, o'qituvchi-tarbiyachining Vatan oldidagi muqaddas burchidir.

Zamonaviy shaxs — chuqur, umumiy bilim, keng dunyoqarash va yuqori kasb tayyorgarligiga ega, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha yetarli savodxon, o'z bilimini tezlik bilan yangilash va to'ldira olish qobiliyatiga ega shaxs sifatida qaraladi. Shular qatori unda intizomlilik, ma'suliyatlilik, ziyolilik, mamlakat mustaqilligiga, Vatan va jahon taraqqiyoti yo'lida ezigulik va adolatga sadoqat tuyg'ulari mavjud bo'lishi zarur. Sohasidan qat'i nazar, jamoada ishlay olish qobiliyatiga, menejment va marketing borasida tayyorgarlikka ega bo'lishi, yangi texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy, siyosiy va madaniy jihatlarini aniq tasavvur qila olishi kerak. Chunki jamiyatimizda sodir bo'ladigan tub o'zgarishlar, bozor munosabatlariga kirib borishimiz shaxsdan nafaqat kasb bilimlarini, balki iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, texnikaviy, hayotiy bilimlardan ham xabardor bo'lishni talab

qilmoqda. Demak, ta'lim-tarbiyaning sifati, samaradorligi birinchi navbatda sifatli ta'limga bog'liq.

Bu borada o'z tajribamga asoslangan holda quyidagi takliflarni Siz bilan o'rtoqlashmoqchiman: oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarida testlar maktabda o'tiladigan asosiy 18 ta fandan teng miqdorda, masalan 6 tadan savollar asosida (6 x 18 = 108 ta) tuzilishi kerak. Oliy ma'lumotga da'vogar o'quvchi geografiyani ham, biologiyani ham, matematikani ham, xorijiy tillarni ham, informatikani ham, qo'yingki musiqani ham bilsin. Barcha fanlardan minimal talablarga javob bersin. Ana shunda o'quvchi yoshlikdan barcha fanlarni mukammalroq o'qishga, o'zlashtirishga harakat qiladi. Siz nima deysiz, aziz zamondosh?

Qobiljon QOSIMOV,
Chortoq tumanidagi
5-davlat ixtisoslashtirilgan
maktab-internati o'qituvchisi,
Xalq ta'limi a'lochisi

Ta'kid

Kelajakni boy bermaylik!

Bu yil oliy ta'lim uchun belgilangan qabul kvotalari 140 mingga yaqin bo'lsa, 600 mingdan ziyod o'quvchi maktabni bitirmoqda.

O'qishga kira olmagan o'quvchi nima qiladi? Bu savolga haqiqatga yaqin javob shuki, juda ko'p hollarda yollanma ishchi sifatida chet davlatga ketish uchun chipta sotib oladi. Bu — kelajakda o'z sohasining ajoyib mutaxassislari bo'lishi mumkin bo'lgan kadrlarni yo'qotdik, deganidir.

Bu masalani atroficha o'rganib shu xulosaga keldimki, bugungi kunda ta'lim tizimimiz 50 % budjetdan oylik oluvchilarni tarbiyalamoqda. Butun mamlakat bo'yicha o'qitish tizimi shunga qaratilgan. Agarda ta'lim tizimimizda islohotlar o'tkazilib, maktabda biznes, kasb-hunarga yo'naltiruvchi ilmlar o'rgatilsa, maktabni tugatgach masalan, 100 ming IT mutaxassisi, 100 ming biznesmen, 100 ming tibbiyot va boshqa turdagi mutaxassislarni tarbiyalab chiqargan bo'lamiz. Natijada ushbu sohalardagi kadrlar yetishmovchiligi va sanab o'tilgan muammolar o'z yechimini topadi. Shundaygina ta'lim tizimimiz 100% budjetdan oylik oluvchilarni emas, balki 60–70% soliq to'lovchilarni tarbiyalab chiqargan bo'lar edi.

O'rta ta'limga kasbga yo'naltirishning ijobiy tarafdari juda ham katta. Masalan, maktab bitiruvchisi kun kelib o'qishga

kira olmagan taqdirda ham o'zining sevimli kasbi, xalqona til bilan aytganda, qo'lida hunari bo'ladi. Chet el tajribasidan misol keltiradigan bo'lsak, dunyoning rivojlangan davlatlari: Yaponiya, AQSh, Janubiy Koreya, Germaniya kabi mamlakatlar ta'lim tizimi shunga ixtisoslashganini ko'rishimiz mumkin. Ularda hupar o'rgatish va yoshlarni ish bilan ta'minlash tizimli yo'lga qo'yilgan. Masalan, Germaniyada o'quvchi o'rta ta'limgan keyingi bosqichdagi gimnaziya maktablari-ga kirish uchun yetarli miqdorda ball to'play olmasa, u o'rta ta'limni davom ettiradi va bu o'quvchi uchun fojia sanalmaydi. Chunki unga ta'limning bu bosqichida kasb-hunar o'rgatiladi. Bu esa o'quvchi o'rta ta'limni bitirib ham o'z yo'lini topa olishi mumkinligini ko'rsatadi.

O'zga yurtlarda yollanma ishchi bo'lib ishlayotgan, turli ellarda darbadar yurgan yoshlarimiz haqqi biz ham ta'lim tizimini yetarlicha isloh qilishimiz shart! Zero, yurtimizning gullab yashnashi ham, uning rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shili-shi ham yosh avlod qo'lida. Ularni boy bermaylik!

Kamronbek YUSUPOV,
O'zJOKU talabasi

Aqlsiz bo'ri va aqlli odam

bola tarbiyasida nimalarga e'tibor beradi?

Insoniyat paydo bo'libdik, pedagogik texnologiya mavjud. Faqatgina bu atama 1970-yili yapon olimi T.Cakamoto tomonidan fanga kiritildi. Uning fikricha, pedagogik texnologiya (o'qitish texnologiyasi) o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasidir.

Tushuncha bor ekan uning ta'rifi bo'ladi. Masalan, matematikada har bir tushunchaga ta'rif beriladi va u "deyiladi" so'zi bilan yakunlanadi. Masalan, "Sanash uchun ishlatiladigan sonlarga natural sonlar deyiladi" yoki "To'g'ri chiziqning ikki nuqtasi va ular orasida yotgan barcha nuqtalar to'plamiga kesma deyiladi" va h.k. Bular standart ta'riflar.

"Pedagogik texnologiya" tushunchasiga turli tashkilotlar va olimlar tomonidan yuzlab ta'rif berilgan, biroq uning standart ta'rifi mavjud emas. Jumladan, UNESCO xalqaro tashkiloti, AQShning pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi, olimlardan Fridman, Palchevskiy, Ilin, V.P.Bespalko, N.F.Taluzina, V.M.Monaxov, M.V.Klarin, L.V.Golish, N.Saydahmedov, M.Ochilov, B.Ziyomammedov, G.Q.Karimova, G.S.Alixojayevlar tomonidan ta'riflar berilgan.

Ushbu ta'riflarning mazmun-mohiyatini, ta'lim-tarbiyaga oid yaxlit sohaning yoki uning biror kichik qismining natijadorligini ta'minlashga qaratilgan tuzilgan loyihasi va uning muayyan sharoitida, inson omili va zarur vositalar yordamidagi tatbiqi, deb tushunish mumkin.

Biror buyumni zavodda ishlab chiqarish uchun avvalo uning loyihasi ishlab chiqiladi. Loyiha o'zaro bog'liq qismlardan tashkil topgan tuzilmadan iborat bo'ladi. Zavodda loyiha qismlari algoritmi asosida jarayon ketadi. Bunday jarayon ishlab chiqarish texnologiyasi deyiladi.

Masalan, 2020-2021-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablari-

da "Tarbiya" fani o'qitiladi. Uning dasturi loyiha hisoblanadi. Bu dasturning tatbiqi asosida "Tarbiya texnologiyasi" ro'y beradi.

Shunga o'xshash, texnologiyalashtirilgan dars bu — o'quv vaziyatlarining barcha qirralarini qamrab olgan, aniq maqsadni ko'zlab, oldindan o'ylab, qat'iy ketma-ketlikda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari va interaktiv usullardan me'yorida va o'rni kompleks foydalanishni, o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchilarning hamkorlikda faol ishlashlari natijasida, har bir o'quvchining eng yaqin intellektual rivojlanish darajasida kafolatlangan bilimlarga ega bo'lishini ta'minlashni nazarga olgan holda tuzilgan dars loyihasi (konspekti) va uning tatbiqidir.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim-tarbiyaga doir barcha texnologiyalar bitta nom bilan pedagogik texnologiya deyiladi.

Biz ta'limning qadimgi, an'anaviy va zamonaviy turlarini bilamiz.

Ajdodlarimiz qadimgi farzandlarini madrasalarda (o'quv maskanlari)da o'qitishgan. Madrasalarda o'qitishning ham o'ziga xos ta'lim texnologiyalari bo'lgan. Quro'ni karim mazmuni bo'yicha bo'laklarga bo'linib, ularni o'qitishda "Xor ovorda takrorlash" texnologiyasidan umumiy foydalanilgan. Masalan, Ibn Sino madrasada 10 yoshigacha Quro'ni karimni yod olgach, qonun, ya'ni shariat ta'limotini, so'ngra tartib bilan hisob (matematika), falsafa, mantiq, tib, tabiiy fanlarni o'rgangan. Demak, ta'lim 7 bosqichda amalga oshirilgan.

An'anaviy ta'lim XVII asr, ya'ni Yan Amos Komenskiy (1592–1670) davridan boshlangan. An'anaviy ta'limning o'zi yana ikkiga, ya'ni "Mumtoz an'anaviy ta'lim" va XX asrdan boshlab "Zamonaviy an'anaviy ta'lim"ga ajraladi.

"Mumtoz an'anaviy ta'lim" o'qituvchining belgilangan o'quv materiallarini o'quvchilarga o'rgatishi, ularni o'quvchilarning jim o'tirib o'zlashtirib olishlari, o'zlashtirilgan bilimlarni uyga berilgan amaliy topshiriqlarni bajarishda qo'llay olishlarini hamda kitob bilan mustaqil ishlay olishini nazarda tutadi. Bu ta'lim fanda didoxografiya deb ataladi.

"Zamonaviy an'anaviy ta'lim" esa didoxografiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari va interaktiv usullardan kompleks foydalanib o'qitishni nazarda tutadi.

U holda "Zamonaviy ta'lim" nima", degan savol tug'iladi. Shu o'rinda ramziy bir misol keltiramiz. Aqlsiz bo'ri oz bolalarini yotqizib yoki o'tirg'izib qo'yib emas, balki ularning tabiatlaridan kelib chiqqan holda, o'yinlarda, kurashlarda tarbiyalab, hayotda yashab qolishlarini ta'minlaydi. Aqlli inson esa bolalarining oilada va sinfda jim o'tirishini talab qiladi. Tabiatdan kelib chiqqan holda "Zamonaviy ta'lim"ga ta'rif beramiz.

Zamonaviy ta'lim deb, mashg'ulotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interaktiv usullardan me'yorida va o'rni kompleks foydalanib, bolalarning tabiatidan kelib chiqqan holda shovqinli-faolliklariga asoslangan va rejalashtirilgan bilimlarni ko'proq mustaqil egallashlariga yo'naltirilgan, ulardan har birini, uning eng yaqin intellektual rivojlanish darajasidagi bilimlar bilan qurolantirib, bu bilimlarni o'zgaruvchan sha-

roitlarda qo'llay olish amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirishni kafolatlaydigan ta'limga aytiladi.

Biz, har bir o'quvchining ikki intellektual rivojlanish darajasini bir-biridan farqlagan holda o'qitish tarafdorimiz:

1-daraja. O'quvchining haqiqiy intellektual rivojlanish darajasi. Bunda o'quvchi o'quv topshiriqlarini hech qanday tashqi yordamsiz mustaqil bajara oladi.

2-daraja. O'quvchining eng yaqin intellektual rivojlanish darajasi. Bunda o'quvchi o'quv topshiriqlarini kamgina tashqi yordam, ya'ni kitoblar, atrofidagi insonlar yoki internet kabilardan foydalanish orqali bajaradi.

Ramziy ma'noda, o'quvchi intellektual rivojlanish darajalarini quyidagicha tushuntirish mumkin:

Birinchi darajani, yengil avtomashinaning loyga botib qolib, uning g'ildiragi tinimsiz aylanayotgani, biroq masofa bosmayotganiga qiyoslash mumkin.

Ikkinchi darajani esa, loyga botib qolgan yengil avtomashinaning orqasidan o'ziga himo qilingach, uning yurib ketganiga o'xshatish mumkin.

Hayot uchun albatta ikkinchi holat zarur. Shunday ekan, darsda ham o'quvchining eng yaqin intellektual rivojlanish darajasini e'tiborga olgan holda o'qitish foydali. Chunki o'quvchi qilolmagan o'quv ishlarini ertasiga o'zi mustaqil bajaradigan bo'ladi. Bunday tashkil etilgan har bir darsda, har bir o'quvchining intellektual rivojlanish darajasi kam-kamdan oshib boradi. Bunday ta'limni rivojlantiruvchi ta'lim deyiladi.

Rivojlantiruvchi ta'lim o'qitishning natijadorligini ta'minlaydi. Natijada, mamlakat zamon talablariga mos, raqobatbardosh kadrlarga ega bo'ladi.

Pirnazar DAVRONOV,
professor,

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi o'qituvchisi
Mahbuba RAHIMQULOVA,
dotsent

Darsliklarda qayd etilmagan nomlar

yoxud Aleksandr Faynbergni qayta kashf etdik

Qariyb qirq yildan buyon o'zbek maktablarida rus tili va adabiyoti fanidan dars berib kelaman. Har bir darsga alohida tayyorgarlik bilan kirishga odatlanganman. Shu bois respublikamizda chop etiladigan gazeta va jurnallarni varaqlab, mavzuga oid yangiliklarni izlab topish — jon-u dilim. O'qituvchining darsga qanday tayyorgarlik ko'rganini uning o'quvchilarga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. O'quvchilarni ham odatimni bilganlari bois har bir darsga o'ziga xos yangiliklar bilan kelishga harakat qilishadi.

11-sinfarga onlayn dars o'tish uchun tayyorlanayotgan chog'imda bir o'quvchim telegramdan menga savol yo'llab qoldi: "Ustoz, nega bizning darslikimizdagi «Поэты Узбекстана» turkumiga Boris Pak, Aleksandr Faynberg va Nikolay Ilin kiritilmagan?" Bu savol menga qattiq ta'sir qildi. O'quvchimga, kelgusi onlayn darsimizni sen o'tib berasan. O'zbekiston xalq shoiri Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi bo'yicha tayyorlan, deya topshiriq berdim.

Sinfdoshlari uning darsini katta qiziqish bilan tinglashdi. Dars so'ngida shoirning she'rlaridan o'qib berdim. Ayniqsa, Aleksandr Faynbergning taniqli shoir

Rustam Musurmon tarjimasidagi she'rlari ularda katta taassurot qoldirdi.

Yaqinda "Yangi O'zbekiston" gazetasi yaraqlay turib, Prezidentimiz tashabbusi bilan yangidan bunyod etilgan Adiblar xiyobonida Aleksandr Faynberg haykali ham o'rnatilganini bilib, juda xursand bo'ldim. Chindan ham shoir o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan, o'zining betakror asarlarida el-u yurtimizni yuksak badiiy mahorat bilan tarannum etgan noyob iste'dod sohiblaridan biri edi. U "Ona shahrim — Toshkentim" nomli nasriy asarida shunday yozadi: "Men

Rossiyaning poytaxtiga mehmon bo'lib kelganman. Mana, u bamosoli kaftimning ustida turgandek butun borlig'i bilan ko'rinmoqda. O'n sakkizinchi qavat derazasidan ushbu shaharning ufqqa cho'zilib ketgan tarhiga boqaman va ich-ichimdan o'kinaman. O'kinaman, o'ksinam! Bu shahar revolyutsiya yillari mening yolg'izgina onamni Magadan ostonasiga ulotqirib yuborgan edi. Ko'p yillar o'tgandan so'ng faqatgina Toshkent uni o'z bag'riga oldi va ellik darajali sovuqlarda qolgan vujudini mehriban isitdi".

Qalbi quyoshdek issiq, bag'rikeng, oqko'ngil o'zbek

xalqining mehr-u saxovatidan bahramand bo'lganini taqdirning cheksiz inoyati va rahmu shafqati deb biladi shoir. Agar ota-onam Toshkentga kelmaganday urush payti nemis-fashistlar qirg'inidan omon qolmas edik, balki men hali dunyoga kelmasdan o'z yonimarg bo'lar edim, degan iqrorni takror-takror aytishdan sira tolmagan. "Onam Moskvada, otam Piterning shundoqqina biqindagi Gatchina shahrida tug'ilgan. Biroq ular Toshkentga Sibirdan ko'chib kelishgan. Hoynahoy, men aynan shu yerda tug'ilishim uchun ko'chib kelishgan bo'lsa kerak...". Uning otasi Arkadiy Lvovich, onasi Anastasiya Aleksandrovna Faynberg.

Shuning uchun Aleksandr Faynberg O'zbekistonni ona Vatanim deya jondan ortiq sevadi. Ona deya ardoqlagan Vatanim mehr-u muhabbat, shukronalik tuyg'ularini izhor etishdan tolmaydi. She'rlari, nasriy asarlarida O'zbekistonning jannatnonand manzaralarini, xalqimizning milliy urf-odatlari,

yuksak madaniyati va ma'naviyatini tasvirladi. Tasvirlaganda ham samimiy, yurakni jiz etkizadigan muhabbat harorati ila jonli va hayotiy ifodaladi:

"Yelena Sergeevna Bulgakova, Anna Axmatova, Faina Ranevskaya, Vladimir Lugovskiy ko'chib kelgan uylar... Aleksey Tolstoy hovlisi... Tatyana Sergeevna Yesenina boshpanasi... Mening jonajon shahrim — ona Toshkentim o'sha yillarda, eh-he, xonadonlariga urush o't qo'ygan yana qanchadan qancha odamlarning jonini saqlab qolmadi deysiz. 1937-yilda bu yerga ko'chib kelishgan va 1939-yili meni dunyoga keltirishgan ota-onam haqida gapirmasam ham bo'ladi...".

Xullas, O'zbekiston xalq shoiri Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi ona O'zbekistonimiz bilan chambarchas bog'liq kechgan. Shu bois uning hayoti va ijodi yoritilgan sahifalar 11-sinf rus adabiyoti darsligiga tezroq kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ro'zimuhammad
ABDURAZZOQOV,
Uchko'prik tumanidagi
20-maktab o'qituvchisi,
Xalq ta'limi a'lochisi

Xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik jarayonlari qanday kechmoqda?



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi farmoni bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi"da uzluksiz ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, jahon ta'lim reytinglarida mamlakatimizni yuqori pog'onalariga olib chiqish kabi bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Jumladan, PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi reytingida O'zbekistonning 2021-yilda birinchi 70 talikka, 2025-yilda 60 talikka va 2030-yilga kelib esa, birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kirishi ko'zda tutilgan.



PISA dasturi bo'yicha xalqaro arenada munosib o'rin egallash, bu shunchaki raqam emas, balki uning ortida mashaqqatli mehnat, ta'lim sifati, kadrlar salohiyati, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, o'quv dasturlari va darsliklar, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik ta'minoti, bir so'z bilan aytganda, milliy ta'lim tizimining qanchalik tayyor ekanligi bilan bog'liq masala yotadi.

O'zbekistonning xalqaro tadqiqotlarda qatnashishga kirishganiga bir yildan ko'proq vaqt o'tdi va "o'tgan davr mobaynida qanday ishlar amalga oshirildi?" degan savol tug'ilishi tabiiy.

Umumta'lim muassasalarining xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishini ta'minlashga mas'ul bo'lgan alohida tashkilot — Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi.

Milliy markaz zimmasiga umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash, xalqaro baholash dasturlarida qayd etilgan natijalarni boshqa davlatlar bilan taqqoslash va boshqa mas'uliyatli vazifalar yuklatilgan.

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan nufuzli xalqaro tashkilotlar o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatilib, O'zbekistonning PISA va PIRLS dasturlarida ilk marotaba 2021-yilda ishtirok etishi rejalashtirildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur xalqaro tadqiqot orqali o'quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari va uslubi bugungi kunda mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida mavjud ichki va tashqi baholash mezonlari va topshiriqlaridan tubdan farq qiladi.

Ya'ni, PISA dasturida 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematik va tabiiy fanlardan savodxonligi, mazkur fanlar doirasida o'quv dasturlari va darsliklaridan olgan ma'lumotlarni eslab qolganliklarini emas, balki egallagan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda qanchalik qo'llay olishlari va berilgan muammoli vaziyatlarga maqbul yechim topa olishlari hamda ijodiy-kreativ fikrlash qobiliyatlari baholanadi.

PIRLS dasturida esa, 4-sinf o'quvchilarning an'anaviy matnlarni tez, ravon, ifodali o'qiy olishi emas, balki darslikdan tashqari berilgan matnlarni o'qib, uni qanchalik tushunishi va talqin qila olishi hamda fikrlarini ravon tilda yozma bayon eta olish ko'nikmalari baholanadi.

Qisqacha qilib aytganda, xalqaro tadqiqotlar natijalari yoshlarimizning hayotga qanchalik tayyorlanayotgani va buning uchun ularga taqdim etilayotgan ta'lim dasturlari bugungi kun talabiga qanchalik javob berishini ko'rsatib beradi.

O'tgan davr mobaynida Ta'lim inspeksiyasi va Milliy markaz tomonidan Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xalqaro tadqiqotlarni joriy etish bo'yicha xalqaro tajribalar o'rganilgani, 30 nafarga yaqin mas'ul xodimlarning xorijiy mamlakatlarda malaka oshirishlari, 7 nafar xalqaro ekspert jalb qilinishi, Respublika bo'yicha 260 nafar trener tayyorlanganini birinchi qadamlar sifatida aytish mumkin.

Shuningdek, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun PISA va PIRLS dasturlari haqidagi umumiy tushunchalar, namunaviy topshiriqlar, ularni bajarish bo'yicha tavsiyalar

va baholash mezonlarini o'z ichiga olgan 4 nomdagi metodik qo'llanmalar yaratildi.



"Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash", "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash", "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash", "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash" deb nomlangan qo'llanmalar har biri 10 000 nusxadan chop etilib, barcha umumta'lim muassasalari va ta'limni boshqaruv organlariga yetkazib berildi.

Dasturlarning tegishli yo'nalishlari bo'yicha topshiriqlar to'plami, mashq daftarlari ishlab chiqildi. Mazkur topshiriqlarda o'quvchilarning mustaqil ishlab, nostandart vazifalarni yechish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishga mo'ljallangan onlayn trenajyor dasturlarini yaratishga e'tibor berildi.

Umumta'lim maktablari o'qituvchilari va o'quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash maqsadida Respublika bo'yicha 348 ta tayanch maktab belgilab olindi va qolgan umumta'lim muassasalari ularga birlashtirildi.

Respublikadagi pandemiya tufayli karantin sharoitiga qaramasdan, onlayn tarzda barcha tayanch maktablar uchun seminarlar tashkil etilib, unda Milliy markaz mutaxassislari tomonidan o'qish, matematik va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik, ijodiy-kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholash va rivojlantirish mavzularida taqdimotlar o'tkazildi.

Ushbu seminarlarni boshqa maktablar uchun davom ettirish, jumladan, 2020-yil sentyabr oyidan boshlab o'qituvchilar uchun Respublika ta'lim markazi bilan hamkorlikda turkum seminar-trening va davra suhbatlari tashkil etish vazifalari belgilab olindi.

Bundan tashqari, Milliy markaz va xalq ta'limi tizimidagi trener o'qituvchilar bilan hamkorlikda xalqaro baholash dasturlariga munosib tayyorgarlik ko'rish uchun ilg'or xorijiy tajribalar o'rganib chiqilgan holda matematik, tabiiy va o'qish savodxonligini, kreativ fikrlashni rivojlantirish hamda dasturlarning umumiy jarayonlari haqida batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga olgan 55 ta qiziqarli videomahsulotlar yaratildi.

Mazkur videomahsulotlar xalqaro baholash dasturlari haqidagi umumiy nazariy tushunchalar berish bilan birga, topshiriqlarni yechish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.



Xalqaro tadqiqotlar topshiriqlarining ahamiyatli tomoni shundaki, u haqida ilk bor eshitgan yoki ko'rgan shaxs uchun murakkab vazifadek tuyuladi, lekin diqqat bilan topshiriqni yechishga kirishilganida, undagi qiziqarli ma'lumotlardan yangilik olish, mantiqiy fikrlab, javob topish orqali go'yoki yangi marralarni zabt etgandek hissiyot vujudga keladi.

Ushbu videodarslarni tayyorlash jarayonida asosiy e'tibor o'quvchilarning maktabda olgan bilimlardan real hayotiy vaziyatlarda qay darajada foydalana olish qobiliyatlarini sinab ko'rishga bog'liq bo'lgan topshiriqlar tanlandi.

"Smartfonlardan foydalanish", "Qaysi mashina", "Navigatsiya", "Tomchining tushish tezligi", "Daraja xossalari haqida", "Har doim, ba'zan, hech qachon", "Plitka yotqizish" kabi mavzulardagi topshiriqlarning nomlanishi ham ularning hayotiy vaziyatlarga naqadar bog'liq ekanligidan dalolat beradi. Birgina misol sifatida, "Smartfon-

dan foydalanish" topshiriqini keltiradigan bo'lsak, ushbu topshiriqlarni bajarish orqali "Ko'p sonli aholisi bo'lgan mamlakatlarda smartfondan foydalanuvchilar kamroqmi? Yoki aksincha, kam sonli aholiga ega mamlakatlarda smartfon foydalanuvchilari ko'proqmi?" kabi qiziqarli ma'lumotlarga ham ega bo'lish mumkin.

Mazkur videomahsulotlar bilan Milliy markazning internet tarmog'ida www.youtube.com Milliy markaz manzilidagi kanali yoki <https://www.youtube.com/channel/UC-1vwenEymZJfXfLWYEsGyTA> havolasi orqali tanishishingiz mumkin.

Topshiriq namunalari matematik mazmun, kontekst va aqliy faoliyat turlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

Masalan, "Plitka yotqizish" topshiriqida berilgan savollarni tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu topshiriq savollari matematik mazmun jihatidan miqdorlar, o'zgarish va munosabatlar, fazo va shakl turkumiga tegishli bo'lsa, kontekst nuqtai nazardan

shaxsiy, kasbiy va ilmiy faoliyatga doir savollardan iborat. Sodaroq qilib aytganda, ushbu topshiriq ustachilik kasbiy doir bo'lib, unda o'quvchining turli ko'rinishdagi plitkalarni berilgan yuzaga mos ravishda terib chiqa olish qobiliyati sinab ko'riladi.

PISA tadqiqotning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik yo'nalishiga oid videomahsulotlarda tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik kompetensiyalari, modeli, topshiriqlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, topshiriqlarni bajarish yuzasidan tavsiyalar keltirilgan. Jumladan, "Qushlar migratsiyasi" deb nomlangan topshiriqqa bag'ishlangan videodarsda topshiriqning uchta savoli batafsil bayon etilgan, ushbu savollar o'quvchilarning hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish, ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash, ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kabi kompetensiyalarini baholashi, o'quvchilar ushbu savollarga javob berishlari uchun nafaqat fanning mazmuniga oid bilimlar, shuningdek, metodologik bilimlarga ham ega bo'lishlari zarurligi ta'kidlanadi.

Kreativ fikrlash bo'yicha "Taomlar festivali logotipi" mavzusidagi videodarsda kreativ fikrlashni baholash kompetensiyaviy modeli, o'quvchilarning ilmiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish hamda yozma va vizual ifodalay olishlarini baholash mezonlari hamda ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar haqida so'z yuritiladi.

Bugungi kunda, qayd etilgan ishlarning davomi sifatida, qo'shimcha o'quv-metodik qo'llanmalar, topshiriqlar to'plami, axborotnomma, videodars va videoroliklar yaratish, shuningdek, tajriba-sinov jarayonlari uchun maxsus nazorat materiallarini tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

Umuman olganda, Milliy markaz tomonidan tegishli vazirlik va idoralari bilan hamkorlikda xalqaro o'quvchilarni baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, o'qituvchilar va o'quvchilarning xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rishlari uchun mo'ljallab ishlab chiqilgan o'quv-metodik va videomahsulotlar hamda xalqaro baholash dasturlarining O'zbekistonda joriy etilishi bilan bog'liq birinchi rasmiy ma'lumotlar bilan quyidagi internet manzillari orqali tanishib borishingiz mumkin:

<http://markaz.tdi.uz/> - veb sayt,
t.me/milliymarkaz - telegram kanali,
youtube.com Milliy markaz,
Facebook.com Milliymarkaz.pisa,
Instagram.com milliy.markaz

Abduvali ISMOILOV,
Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzuridagi
Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi direktori

Sinab ko'ring

Kvadrat tenglama

yordamida masalalar yechish

8-sinf Algebra kursida kvadrat tenglama yordamida masalalar yechish mavzusi boshqa mavzularga qaraganda ancha murakkabligi sabab darslikda mukammal bayon etilgan. Ammo o'quvchilar masalalarini yechishda ba'zi qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy. Qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun o'quvchilar nimalarga e'tibor bermog'i lozim? Birinchidan, matnni takror o'qib masala shartini yaxshi tushunish kerak. Ikkinchidan, fanlararo bog'liqlikni anglash, uchinchidan esa to'g'ri mulohaza yurita bilish kerak. Shunda tenglama tuzish va uni yechish oson bo'ladi. Quyida mana shunday masalalardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

1-masala. To'g'ri burchakli uchburchakning yuzi 180 sm², agar katetlaridan biri ikkinchisidan 31 sm katta bo'lsa, shu uchburchakning katetlarini toping!

Yechish. Masala shartini takror o'qib chiqamiz va bu masala geometriya faniga chambarchas bog'liqligini tushunib olamiz. To'g'ri burchakli uchburchakning yuzi katetlar ko'paytmasining yarmiga tengligini yax-

shi bilamiz, ya'ni $S = \frac{a \cdot b}{2}$ masala shartiga ko'ra, $s = 180 \text{ sm}^2$ bir kateti x sm, ikkinchi kateti x+31 sm ekanini bilgan holda yuqoridagi formulaga ko'ra $\frac{x \cdot (x + 31)}{2} = 180$ tenglamani hosil qilamiz.

Bundan $x^2 + 31x - 360 = 0$ kvadrat tenglama kelib chiqadi. Ushbu kvadrat tenglamani yechsak $x_1 = 9$; $x_2 = 40$ kelib chiqadi. Kvadrat tenglama ildizidan faqat birinchisi masala shartini qanoatlantiradi. Demak, uchburchakning birinchi kateti 9 sm, ikkinchi kateti birin- chisidan 31 sm katta, ya'ni 40 sm ekan.

Javob: 9 sm, 40 sm.

2-masala. 400 km masofani tezyurur poyezd yuk poyezdiga qaraganda 1 soat tezroq bosib o'tdi. Agar yuk poyezdning tezligi tezyurur poyezdnikidan 20 km/soat kam bo'lsa, har bir poyezdning tezligi qanday?

Yechish: Bu yerda masalani takror o'qib chiqib, shunday xulosaga kelamiz. Ushbu masala fizika fanidagi masofani topish formulasiga bog'liq, ya'ni bevosita $s = vt$ (1) formula nazarda tutiladi. Masala shartiga ko'ra $S = 400$ km, tezyurur poyezd tezligi $v_1 = x$ km/soat, yuk poyezdning tezligi $v_2 = x - 20$ km/soat.

Masala shartiga tezyurur poyezd 400 km masofani

yuk poyezdiga qaraganda 1 soat tez bosib o'tgan, ya'ni $t_2 - t_1 = 1$. (2) Endi t_1 va t_2 nimaga tengligini (1) formuladan aniqlaymiz.

$$S = v_1 \cdot t_1 \text{ ga ko'ra } t_1 = \frac{S}{v_1} = \frac{400}{x}$$

$$S = v_2 \cdot t_2 \text{ ga ko'ra } t_2 = \frac{S}{v_2} = \frac{400}{x - 20}$$

Bu tenglama masala shartidagi tenglamadir. Bundan $400x - 400x + 8000 = x(x - 20)$, oxirini ixchamlasak $x^2 - 20x - 8000 = 0$ hosil bo'ladi. Bu kvadrat tenglamani yechsak $x_1 = 100$; $x_2 = -80$.

Masala shartini birinchi ildiz qanoatlantiradi. Demak, tezyurur poyezd tezligi 100 km/soat, yuk poyezdi undan 20 km/soat kam tezlikda yurgan, ya'ni yuk poyezdi 80 km/soat tezlikda yurgan ekan.

Javob: 100 km/soat, 80 km/soat.

3-masala. Ikki guruh mutaxassislar birgalikda ishlab qishloqda qurilgan shifoxonani sozlash va zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash ishlarini 12 kunda tamomladi. Agar guruhlardan biri bu ishni ikkinchisiga qaraganda 10 kun kam vaqtda uddalay olsa, har bir guruh alohida ishlab uni necha kunda bajara oladi?

Yechish: Masalani takror o'qib ushbu masala fizika, texnika, xalq xo'jaligiga bog'liqligini tushunib olamiz.

Masala yuzasidan mulohaza yuritamiz. Birinchi guruh butun ishni x kunda bajaradi. Masala shartidan kelib chiqib, ikkinchi guruh butun ishni birinchisiga qaraganda 10 kun kam vaqtda bajarsa x-10 bajarar ekan. Ma'lumki, bir guruh ma'lum ishni x kunda, ikkinchi guruh y kunda va ular birgalikda z kunda bu ishni tamomlasa u holda quyidagi tenglik o'rinni:

$$\frac{1}{x} + \frac{1}{y} = \frac{1}{z}$$

Yuqoridagi tenglikdan kelib chiqib quyidagicha yechamiz:

$$\frac{1}{x} + \frac{1}{x-10} = \frac{1}{12}$$

$$12 \cdot \frac{x-10+x}{x \cdot (x-10)} = 1$$

$$12 \cdot (2x-10) = x^2 - 10x$$

$$x^2 + 10x - 24x + 120 = 0$$

$$x^2 - 34x + 120 = 0$$

Viyet teoremasiga asosan:

$$\begin{cases} x_1 + x_2 = 34 \\ x_1 \cdot x_2 = 120 \end{cases}$$

$$x_1 = 30$$

$$x_2 = 4$$

X=30 masala yechimi bo'ladi.

1-guruh 30 kunda, 2-guruh 20 kunda bajaradi.

Javob: 20 kun, 30 kun.

4-masala. Velosipedchini yo'ning birinchi yarmidagi tezligi uning ikkinchi yarmidagi tezligidan 3 km/soat ortiq bo'ldi. Agar velosipedchi 90 km.li barcha yo'lni 5,5 soatda bosib o'tgan bo'lsa, u yo'ning ikkinchi yarmini qanday tezlik bilan bosib o'tgan?

Yechish: ushbu masala fizika fani bilan bog'liq. Endi mulohaza yuritamiz, velosipedchi yo'ning birinchi yarmini x km/tezlik bilan bosib o'tgan. Jami yo'l 90 km, yo'ning birinchi yarmi 45km/soat, ikkinchi yarmi- yam 45 km/soat.

$$t_1 + t_2 = 5,5$$

Endi $s = vt$ formulaga ko'ra

$$\frac{S_1}{v_1} = \frac{45}{x}$$

$$S_1 = v_1 \cdot t_1 \text{ dan } t_1 = \frac{45}{x} \text{ soat}$$

$$\frac{S_2}{v_2} = \frac{45}{x-3}$$

$$S_2 = v_2 \cdot t_2 \text{ dan } t_2 = \frac{45}{x-3} \text{ soat}$$

$t_1 + t_2 = 5,5$ tenglamaga t_1 va t_2 ning qiymatini qo'yamiz.

$$\frac{45}{x} + \frac{45}{x-3} = 5,5$$

Yoki

$$\frac{45}{x} + \frac{45}{x-3} = \frac{11}{2}$$

Bundan $45 \cdot 2(x-3) + 45 \cdot 2x = 11x(x-3)$.

$90x - 270 + 90x = 11x^2 - 33x$, oxirini ixchamlasak, $11x^2 - 213x + 270 = 0$ kvadrat tenglama hosil bo'ladi. Ushbu kvadrat tenglamani yechsak, $x_1 = 18$; $x_2 =$ kelib chiqadi. Masala shartini faqat birinchi ildiz qanoatlantiradi. Velosipedchi yo'ning birinchi yarmini x km/soat, ikkinchi yarmini x-3 km/soat tezlik bilan bosib o'tgan degan edik. Demak, yo'ning birinchi yarmini 18 km/soat, ikkinchi yarmini 15 km/soat tezlik bilan bosib o'tgan ekan. *Javob:* 15 km/soat.

Xulosa qilib aytganda, kvadrat tenglama yordamida masalalar yechish mavzusini to'liq va oson o'zlashtirish uchun yuqorida yechib ko'rsatilganidek masalalarga e'tibor qilinsa, o'quvchilar qiyinchiliklarga duch kelmay, yutuqlarga erishishiga ishonch hosil qilsa bo'ladi.

Adash AHMEDOV,
Doston QURBONOV,
Urgut tumanidagi
8-maktab o'qituvchilari

Avval matematika...

Uch masala ustida...

Adolatli taqsim

Uch aka-uka — Ahmad, Rahmat, Samad dalada ishlab, ish haqlariga bir qop bug'doy oldilar. Ammo ular bu haqni teng bo'lib olishlari uchun na tarozi, na bir idish topildilar. Shu bois bug'doyni ko'z bilan chamalab taqsimlamoqchi bo'lishdi. Bu ishni ularning eng kattasi Ahmad bajardi-da, dedi:

— Birinchi uyumni Rahmat, sen ol, ikkinchisi Samadga, uchinchisi esa meniki.

— Men noroziman, — deya e'tiroz bildirdi Samad, — eng kam ulush menga bo'lib qoldi-ku!

Shu tarzda aka-ukalar tortishib qo-

lishdi, axiyri janjal bo'lib ketishiga sal qoldi. Bir uyumdan ikkinchisiga bug'doy solib, yana joyiga qaytarib qo'yaverib, hech bir bitimga kelisholmasdi. Har gal birining nazarida boshqa uyumdagi g'alla miqdori kamga o'xshab ko'rinaverdi.

Ahmad esa "agar Rahmat bilan ikkimiz ishlaganimizda men bu bug'doyni tezda ikkiga bo'lardim va adolatli taqsim qilgan bo'lardik. Avval Rahmatga teng ikkiga bo'lingan qismdan birini tanlashni taklif etardim, bundan ikkalamiz ham mamnun bo'lardik. Endi nima qilishga hayronmiz?" deya xunob bo'lardi.

Aka-ukalar o'ylab-o'ylab adolat kalitini topgandek bo'lishdi. Siz ham mulohaza qilib ko'ring-chi?

Sherlok Xolms va uning jiyani

... Bir kuni Sherlok Xolmsning jiyani Jek mashhur tog'asiga masalani yechishda yordam berishini so'radi. Masala sharti quyidagicha: bir necha bir xil kitob va bir xil daftarlar sotib olindi. Kitoblar uchun 100 560 funt to'landi. Bitta kitobning bahosi bitta daftarnikidan 1000 funt qimmat va kitobdan daftarga qaraganda 6 ta ko'p xarid qilangani ma'lum. Necha kitob sotib olingan?


Mashhur izquvar masalaning shartini o'qib, stoldan oyna oldiga bordi va qaytib kelib necha kitob olinganini aytdi.

Ayting-chi, Sherlok Xolms nechta kitob sotib olinganini qanday qilib tezda hisoblab, javob qaytara oldi?

Qo'riqchilarni joylashtirish

Kvadrat shaklidagi qo'rg'onni qo'riqlash uchun 16 nafar qo'riqchi askarni serjant rasmda ko'rsatilgandek,

har bir tomonda 5 tadan qilib joylashtirdi. Qo'rg'onning xavfsizligiga ko'zi yetmagan polkovnik 16 qo'riqchini qo'rg'onning har bir tomonida 6 nafardan qilib joylashtirdi. Polkovnikdan so'ng general kelib xavfsizlikni yanada oshirish uchun har bir tomonga 7 nafardan qo'riqchi qilib qo'ydi. Polkovnik va general qanday qilib bu ishni amalga oshirishdi?



Norchuchuk NORMURODOVA,
Shahrisabz shahridagi
16-maktab o'qituvchisi
(Ushbu boshqotirmaning to'g'ri yechimini topgan mushitariyning tahririyatga yo'llagan javob maqolasi chop etiladi).

“Ona tilim” degan she’rni bayram kunlari aytib berish bilan ish bitmaydi.

Tan olish kerakki, yosh avlodga adabiyotni ham, ona tilini ham yetarli darajada o’qita olmayapmiz. O’quvchi Alisher Navoiyning necha bayt va qaysi vaznlarda asar yozganini bilishi shart emas, u shoirning o’zbek tili va adabiyoti nufuzini ko’tarish uchun nimalar qilganini bilishi kerak. Biz bolalarga Boburning tilga munosabatini, Vatanga muhabbatini, jadid bobolarimizning til va milliy adabiyot uchun qilgan fidoyiliklarini o’rgatolmaganimiz, asarlarining mohiyatini, tilining zojibasini ko’rsata olmaganimizdan bugun shu holga kelib turibmiz.

Qodiriyning tilimiz va adabiyotimiz takomili uchun yozgan asarlarining mag’zi, Avloniyning ta’lim va tarbiya borasidagi dardli qayg’urishlari — bularning hammasi yosh avlodga oddiy alla ohangida o’qitilm asligi kerak. Jarangdor ovozi, shijoat, g’ayrat, g’urur bilan ajodlarning shu tili, adabiyot taraqqiyotiga qo’shib ketgan hissasi o’quvchilarga birma-bir uqitirilishi lozim.

O’quvchimiz, talabalarimiz, ayrim madaniyat xodimlari, san’at ahli tilimizni, buyuk bir millat hisoblangan xalqimizning asrlar osha e’zozlab kelgan qadriyatlarini oyoqosti qilib turgan, tadbirkorlarimiz o’z ona tilini nazar-pisand qilmay, xorijiy so’zlariga ishqiboz bo’lib turgan ekan, demak, bizning yoshlar tarbiyasi bilan bog’liq qiladigan ishlarimiz hali ko’p.

Navoiy, Bobur, Qodiriy, Fitrat, Avloniy kabi millat fidoyilarining avlodlari bo’lsakda ko’pchiligimizda shijoat yo’q. O’quvchiga, talabaga, farzandlarimizga Vatani, milliy til, milliy g’urur, milliy adabiyot nima ekanligini o’rgata olmayapmiz. “Ona tilim” degan she’rni bayram kunlari aytib berish bilan ish bitmaydi. Oiladagi tarbiya ham Avloniy ta’kidlagani kabi islohg muhtoj. Ota-onalarimiz o’z farzandlarining tili va adabiyotiga, Vatanga munosabatlarini bilib qo’ysalar foydadan xoli bo’lmaydi.

Milliy til va adabiyotni o’rgatayotgan hurmatli o’qituvchilarimizning o’zlari millatparvar bo’lmas ekan, til, adabiyot uchun kuyib yonmas ekan, vatanparvarlik, sadoqat va mas’ullik haqida orzu ham qilib bo’lmaydi. Fidoyi o’qituvchilarimiz soni juda ham kam. Ustozlarki, o’z shogirdlari qalbiga cho’g’ sola olmas ekan, bizda bu harakatsizlik, beparvolik, erinchoqlik, loqaydlik davom etaveradi. Maktablarda, oliy o’quv yurtlarida ko’zlari yonib turgan yoshlarimiz ko’p, ularning shijoatini ayrim no’noq o’qituvchilar, zamon talabiga javob

bera olmaydigan o’qitish metodikasi, sifat-siz darsliklar so’ndirib qo’ymoqda. O’qituvchilikka yuragida o’ti bor, shijoatli, xalq dardini his etadigan, insonparvar, millatparvar kishilar ishga olinishi kerak. Bizda shu paytgacha oliy o’quv yurtlarining aksariyat qo’lidan boshqa ish kelmaydigan eng no’noq bitiruvchilari maktablardan dars olib, kun o’tkazib kelmog’da. Nega maktab bitiruvchilarining ko’pchiligi filologiya, ona tili va adabiyot yo’nalishlarini (juda kam abituriyent shu sohani yoqtirgani uchun) tanlaydi? Ba’zilar bu fanlardan dars soatlari ko’pligini, har doim ish topilishini inobatga oladi. Mayli, bunga ham e’tibor qilmaylik, ayrimlari oson fanlar deb o’ylaydi, lekin mas’uliyati og’irligini tasavvur ham qila olmaydi, chunki hech kim ma’lumot bermaydi. “Filologiyani bitirsa, turli sohalarda ishlay oladi, hech bo’lmasa, maktabda muallim bo’ladi” degan eskicha qarash bu fanlari shu holga olib keldi. O’qituvchilikka ham alohida qobiliyat bo’lishi kerakligi esimizga kelmaydi. Zero, ona tili barcha fanlarni o’rganish asosi, adabiyot inson qalbining, tafakkurining muhandisidir. Mana shu vazifani uddalay olaman, degan mard marhamat qilib o’qituvchilik qilaversin!

Ona tili darslarida o’quvchi nimalarni o’rganmoqda? Yaqin o’timishda ham 5-6 yoshidayoq Qur’on va hadislarini, uzun-dan uzun g’azallarni yod olgan buyuk ajodlarning avlodlarimiz, biroq maktablarimizda bola psixofiziologiyasiga to’g’ri kelmaydi, deb hali ham 12-13 yoshli o’quvchiga

“Qalin og’ayni Omon va Eson,
Bir xil yoshdadir eson va omon”...
yoki
“Lola chiqdi gulboqqa,
Ertalab gul termoqqa” kabi she’rlarni o’rgatib o’tirsak, o’quvchiga qachon vatanparvarlikni, sha’ni, oriyat va g’urur ni-

maligini o’gatimiz? 4-5-sinflarda o’quvchi xotirasi umri davomida foydalaniladigan asosiy ma’lumotlarni eslab qoladi. Yuqori sinflarda eng muhim she’rlar berilgani bilan ularni o’quvchi ko’p hollarda yodlab qola olmaydi. Nega maktablarning yuqori sinflarida Shavkat Rahmonning:

**Hali hech narsani uddalamadim,
hali hech kimsani qilmadim rozi.
Behuda o’tibdi go’zal umrimning,
qanchalar chiroyli bahori, yozi.**

**Farog’at borligin unutib qo’ydin,
bag’rimga chaqinlar tegdi, daf’atan.
Sendan-da ulug’roq narsa yo’qligin,
sochim oqarganda angladim, Vatani...**

misralariga o’xshagan hissiyotni junbushga keltiradigan, tafakkur qilishga undaydigan she’rlarni yod oldirmaymiz, ona tili darslarida matn tablili bilan shug’illanmaymiz, muhokam qilmaymiz?..

Adabiyot darslari interaktiv bo’lsin degan umidda yangilik ketidan quvib mashg’ulotlar o’yinga aylantirib qo’yilgan. O’qituvchi tomonidan tashkil etilgan noan’anaviy darslarning asosiy qismini shoirning hayotiy faoliyati bilan bog’liq ma’lumotlar egallaydi. Bir ijodkorning qayerda tug’ilgani, qayerda o’qigani, qayerda ishlagani, qaysi janrlarda qancha asar yozgani muhim emas, yozuvchi yozgan asari uchun darslikka kiritiladi. Shuning uchun darsning dastlabki daqiqasidanoq asarga o’tib ketilishi kerak. Nega adabiyot muallimi, darsni tanlangan asardagi hal qiluvchi jumla, yoki shohbaytni yod aytish, yoki doskaga yozib qo’yish, yo bo’lmasa, proyektorga chiqarib shuni sharhlashdan, o’quvchining shunga mustaqil munosabatini bilishdan boshlamaydi? Biz o’quvchilarni adabiyotga olib kira olmayapmiz, holbuki, aksariyat o’qituvchilarimizning o’zlari hali ham badiiy asarning ichiga

kira olmaydi. Adabiyot va ona tili fanlaridan, ko’pincha, bir o’qituvchi dars o’tishini inobatga olsak, iste’dodli, fidoyi o’qituvchi ona tilida o’tilgan mavzularni adabiyot, va aksincha, adabiyotda o’qitganlarini ona tili darslarida mustahkamlaydi, bilimlarni integratsiya qiladi. No’noq o’qituvchi esa, na tilni o’rgatadi, na adabiyotni.

Shu o’rinda yana bir katta muammo bor. Malaka oshirish institutlarida, markazlarda o’qituvchilarimiz mutaxassislikdan yetarli malaka oshira olmaydi. Informatika, pedagogika, chet tili va me’yoriy hujjatlar bo’yicha test yodlash bilan vaqt o’tkaziladi. Ayniqsa, Respublika miqyosida malaka oshirish markazlarida ona tili, o’zbek tili fanlarini o’qitadigan, zamonaviy metodikani o’rgatadigan mutaxassis yo’q hisobi. Bu masala o’ylab ko’rilishi kerak, zero, filolog bilan metodist-olimning farqi bo’ladi. Juda qo’pol o’xshatish bo’lsa-da, filolog mutaxassislar mashinani sozlovchi ustalar bo’lsa, metodistlar mashinadan qanday foydalanish, uni qanday boshqarish, yurish qoidalarini o’rgatadi. Mana shu farqni anglamas ekanimiz metodikada o’zgarish bo’lmaydi, ta’limda ona tili va adabiyot o’qituvchilarimizning mahorati ham oshmaydi, chunki mashinani boshqarishni o’rgangan kelgan kishiga sozlashni o’rgatish, texnikaning ichki tuzilishi haqida ma’lumot berish noto’g’ri.

Maktablarda ona tili va adabiyot murakkab bir fanga aylanib qolgan, aslida ona tili qadriyat, adabiyot esa san’at darajasida o’qitilishi kerak, shunda o’quvchi-yoshlar tilni e’zozlaydi, adabiyotni sevib qoladi, zavqlanadi, asar mutolaasi, muhokamasi hayot tarziga aylanadi, natijada uning tili ham ravonlashib, nutqi boyib boraveradi.

G’ofir HAMROYEV,
Pedagogika fanlari
bo’yicha falsafa doktori

Ko’zga ko’rinmas, ammo kechirib bo’lmas xatolar

Aziz hamkasblarim! Anchadan buyon dilimni ranj-tayotgan holatlar haqida siz bilan suhbatlashmoqchi bo’laman-u, o’zbekona istihola ustunlik qilib, so’z ochishga iymanamam. Ammo bugun kechiktirib bo’lmas mavzuni o’rtaga tashlamoqchiman.

Siz va biz bir-birimizni qo’llab-quvvatlashimiz uchun faqatgina erishilgan yutuqlar suhbatimiz mavzusi bo’lmasligi kerak. Ha, anglaganingizdek, hamkasblarning do’stona, tanqidiy fikrlari bizni yana ham o’z ustimizda ishlashga undaydi. Faoliyatimiz davomida yo’l yo’layotgan xatolar xususida bir-birimizni ogohlantirib, ularni bartaraf etish choralari ko’rsak, yoshlar ta’lim-tarbiyasiga mustahkam poyyedvor qo’yan bo’lamiz.

Bugungi kun o’quvchilarining nutqi haqida so’z ketganda, tarozining pallasini salbiy baho ko’proq bosadi. Nega shunday, o’ylab ko’rganmisiz? Sababini boshqa tomonlardan izlashga shoshilmang!

Axir, o’quvchi o’qituvchining ko’zgusi emasmi? O’zimizga boqaylik-chi, balki nutqimiz sofligiga putur yetgandir. Kasbim taqozosi bilan ko’p hududlarda bo’lib, ustozlarning darslarini kuzatdim. Shaharda ham, qishloqlarda ham. Aksariyat hollarda hududga xos bo’lgan so’zlashuv, ya’ni sheva ohangi o’qituvchi nutqiga singib ketgan. Hattoki, tanlovlarda qatnashayotgan ba’zi ustozlarimiz ham dars jarayonida shevada so’zlaydi.

Nutq sofligi — uning adabiy tili va jamiyatdagi ma’naviy-axloqiy qoidalarga yot bo’lgan usurlardan xolligi bilan belgilanadi. Adabiy nutq sofligiga putur yetkazuvchi usurlarning asosiy turlari quyidagilar: 1) shevaga xos gram-

matik shakllar, urg’u va talaffuz; 2) o’rinsiz qo’llangan chet so’z va so’z birkimlari (varvarizmlar); 3) dag’al, haqorat so’z va iboralar (vulgarizmlar); 4) “ishlamaydigan” yoki parazit so’zlar; 5) idoraviy so’z va iboralar (kanselyarizmlar). Nutq tuzuvchi o’z nutqining sofligi haqida qayg’urur ekan, albatta, mazkur usurlarni qo’llashdan tiyilishi lozim. (Manba: 10-sinf ona tili darsligi, 2017-yil).

O’quvchining boshlang’ich sinfdanoq nutqini nazorat qilish, adabiy til asosida muloqot madaniyatini shakllantirish vazifamizdir. Chunki o’g’zaki nutqning yozma nutqqa ta’siri nihoyatda kuchli. O’quvchi ustoz talaffuzidagi so’zni to’g’ri deb biladi. Oddiygina misol, o’qituvchi yozuv taxtasi yonida o’z shevasida bilim tarqatayapti. Nutqidagi soflik buzilganini o’sha hududda kamol topayotgan o’quvchilar payqamaydi, chunki ular uchun bu tabiiy so’zlashuvdir. Lekin bora-bora o’quvchida

adabiy tilning hurmati, mas’uliyati susayadi. Dars davomida eng ko’p iste’moldagi so’zlar shevaga xos talaffuz etilsa, bunday xatolar kelajakdagi xatolarga zamin bo’lmaydi deb kim ayta oladi?

“Man”(men), “biza” (biz), “sila” (sizlar), “sani galing” (sening, aslida sizning, navbating), “yozila” (yozing(ko’plik), “mam-bu” (mana bu), “shetta” (shu yerda), “allingga boriy-chi” (yoningga boray-chi), “buladi” (bo’ladi), “oppor” (olib bor), “minerga ke” yoki “ke” (mana bu yerga kel), “osa”(ol-sa) va hokazo. Bu so’zlarni uzoq davom ettirish mumkin. Adabiy tilda so’zlasa-da, ammo talaffuz ohangida shevaning nafasi ufu-rib tursa, bunday so’zlashishdan nima naf? Bu ko’zga ko’rinmas, ammo kechirib bo’lmas xatomiz emasmi? O’quvchining uyida shu tartibda muloqot qilinsa, nima ham qila olardik, demochimisiz? Biz ularga moslashamiz, desiz balki. Nima deb o’ylaysiz: ularga og’za-

ki suhbatda adabiy tilda murojaat qilish g’ayratibiy tuyulishiga vaqtida chora ko’rilmagani emasmi? Adabiy tilning sofligini saqlash millat vakilining burchi ekanligini his ettirish birinchi vazifa emasmi? Nutqida paydo bo’layotgan yot tillar ifodasini o’z o’rnida o’zbek tilidagi muqobiliga o’gira oladigan ko’nikmani shakllantirishimiz zarur emasmi?

Adabiy til sofligini saqlash har birimizning burchimiz. Ammo yo’l-yo’lakay uchrayotgan nutqdagi xatomati tuzatib borish, har qanday jamoat joyda o’z nutqi orqali adabiy tilni targ’ib etish, hurmat uyg’otishga undash va til taraqqiyotiga hissa qo’shish, eng birinchi navbatda, o’qituvchining vazifasidir. Bu vazifani bajarishda o’zimiz o’mak bo’laylik, so’ng ke-lajak avloddan talab qilaylik!

Dildor
NURMUHAMMEDOVA,
Termiz shahridagi
23-maktab o’qituvchi

Dolzarb mavzu

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'tgan yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlangan edi. Mazkur hujjat oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari — zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga asos bo'ladi. Oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilg'or texnologiyalar asoslangan holda strategik vazifalarni amalga oshirishda mamlakatimizdagi yetakchi oliy o'quv yurtlaridan biri Toshkent davlat texnika universitetida ham birmuncha ishlar bajarilmoqda.

Kelajak bugundan boshlanadi

Mazkur Konsepsiya oliy ta'lim sohasida mavjud muammolarni bartaraf etish bilan birga, sohani zamonaviy standartlar darajasiga ko'tarmoqda, — deydi Toshkent davlat texnika universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor Sadritdin Turobjonov. — Buning uchun yaqin yillar ichida mamlakatimizdagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasi xalqaro e'tirof etilgan (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingning birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kirishi ustida izlanilmoqda.

Jumladan, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ham dunyodagi eng nufuzli oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kirishini niyat qilganmiz. Buning uchun bizda, hozirgi fan tili bilan aytganda, ilmiy salohiyat azaldan mavjud bo'lgan. Faqat uni yanigacha ko'rinishda, zamonaviy qiyofada namoyon qila olishimiz kerak.

Oliy ta'lim olish ishtiyoqidagi yoshlar soni yildan-yilga oshyapti. Masalan, o'tgan o'quv yili qabul parametrlari bo'yicha 4 ming 485 nafar yoshlarni talabalikka qabul qildik. Joriy o'quv yilida esa test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan 5 480 nafar abituriyentlarni talabalikka qabul qilishni rejalashtirdik. Bu esa o'tgan yilgidan salkam ming nafar ko'p degani. Ayni keza universitetimizda bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qiyotganlar 12 939 ming, magistratura mutaxassisligi bo'yicha esa 882 nafar bo'lib, so'nggi uch yilda bu ko'rsatkich uch baravarga oshdi.

Koronavirus pandemiyasi sharoitida ham o'quv jarayonlari masofadan onlayn tarzda uzluksiz davom ettirildi. Bu borada ham yaxshi tajribaga ega bo'la boshladik. Chunki ilgari ta'lim deganda, o'qitish va tarbiyalash tushunilar edi.

Takomillashtirilgan fan dasturlari asosida ehtiyojdan kelib chiqib 206 nomdagi yangi o'quv adabiyotlari (shu jumladan, 32 ta darslik, 33 ta o'quv qo'llanma, 141 ta o'quv-uslubiy ko'rsatmalar) yaratildi. O'MTV tomonidan o'tkazilgan "Yosh kitobxonlar" ko'rik-tanlovida universitet jamoasi "Kitob tafakkur xazinasi", "Eng faol badiiy asarlar targ'ibotchisi", "Yosh ijodkor talaba", "Asarlardan yaralgan navolar" kabi yo'nalishlarida o'z bilimlari bilan ishtirok etdilar.

Bugungi kunda modulli o'qitishda ta'lim — bu o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishdir. Bu usul bizdan oldinroq rivojlangan mamlakatlarda boshlangan edi. Jumladan, Janubiy Koreya respublikasida modulli o'qitish tizimiga o'tilgandan keyin ta'limga masofaviy o'qitish kiritilgan. Bu usulda o'qitish auditoriya soatlari kamaytirilib, talabaning mustaqil o'quv tadqiqotlari ko'paydi.

Universitetimizda lokal tarmoqlar tashkil etilib, talaba yoshlar keng jalb etildi. Tarmoqda universitet tomonidan olib borilayotgan yangiliklar va yo'l qo'yilayotgan xato-kamchiliklar haqida aniq va tiniq ma'lumotlar berib borilyapti. Oliy ta'lim dargohi hayotidagi yangiliklardan barcha boxabar bo'lmoqda. Kelajakdagi ishlarni qaysi yo'nalishda olib borishni oldindan belgilash imkoniyati yaratildi.

Kadrlarimiz qadri oshadi

Ayni keza Toshkent davlat texnika universiteti bilan taqdirini bog'lab har tomonlama yetuk kadr bo'lish uchun intilayotgan yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasiga o'ziga xos tarzda, zamonaviy usullar asosida yondashish ilm dargohimiz professor-o'qituvchilarining asosiy vazifasi hisoblanadi, — deydi universitet rektori Sadritdin Turobjonov fikrlarini davom ettirib. — Buning uchun tashkiliy-huquqiy asoslar tizimli ravishda kuchaytirib borilmoqda. Xususan, universitetda tugayotgan 2019/2020 o'quv yilida keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirildi. Albatta, bularning barchasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan hammaslaklikda olib borilmoqda. Birinchidan, mamlakatimizda iste'molchi korxonalar va iqtisodiyot tarmoqlari talablari asosida yana 9 ta yangi bakalavr ta'lim yo'nalishlari va 4 ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Prezidentimizning "2020/2021-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy



ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi qarorida ta'kidlanganidek, iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy soha ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, zamonaviy o'quv bosqichlari joriy etiladi. Talab yuqori bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Buning uchun iste'molchi korxonalar talabiga asosan iqtisodiyot tarmoqlari talablari asosida yangi o'quv yilidan "Transport vositalari muhandisligi (turlari bo'yicha)", "Gidroenergetika", "Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha)", "Bino va inshootlar qurilishi (neft-gazni qayta ishlash sanoati obyektlari)", "Metallar texnologiyalari (jarayon turlari bo'yicha)", "Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)", "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)", "Menejment (sanoat korxonalarida innovatsion loyihalar boshqaruvi)" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda "Kukunli metallurgiya, kompozitsion materiallar, qoplamlar", "Aviatsiya-kosmik vositalari bilan tabiiy resurslarni tadqiq qilish", "Quduqlarning geofizik tadqiqotlari", "Gidrogeofizika va muhandislik geofizikasi", "Konchilik geofizikasi", "Neft va gaz quduqlarini

Prezidentimizning "2020/2021-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi qarorida ta'kidlanganidek, iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy soha ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, zamonaviy o'quv bosqichlari joriy etiladi. Talab yuqori bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Buning uchun iste'molchi korxonalar talabiga asosan iqtisodiyot tarmoqlari talablari asosida yangi o'quv yilidan "Transport vositalari muhandisligi (turlari bo'yicha)", "Gidroenergetika", "Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha)", "Bino va inshootlar qurilishi (neft-gazni qayta ishlash sanoati obyektlari)", "Metallar texnologiyalari (jarayon turlari bo'yicha)", "Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)", "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)", "Menejment (sanoat korxonalarida innovatsion loyihalar boshqaruvi)" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda "Kukunli metallurgiya, kompozitsion materiallar, qoplamlar", "Aviatsiya-kosmik vositalari bilan tabiiy resurslarni tadqiq qilish", "Quduqlarning geofizik tadqiqotlari", "Gidrogeofizika va muhandislik geofizikasi", "Konchilik geofizikasi", "Neft va gaz quduqlarini

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbus doirasida yoshlarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadi-

Kelajak bugundan boshlanadi

Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlar masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etib, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, huquq va manfaatlarini himoya qilish, ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, iqtidorini rivojlantirish, axborot xurujlari va nosog'lom muhitdan himoya qilish doimiy diqqat-e'tibordagi asosiy masalaga aylanmoqda, — deydi universitet o'quv ishlari bo'yicha prorektori Orifon Zarifov. — Oldindan ishlab chiqilgan tegishli reja asosida fakultetlar kesimida o'n mingga yaqin talabaning "Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi", "O'zbekiston tarixi davlat muzeyi", "Zemuriylar tarixi davlat muzeyi", "O'zbekiston islom sivilizatsiyasi markazi singari poytaxtimizdagi diqqatga sazovor ma'rifat maskanlariga sayohati amalga oshiriladi. "O'zbekikino" milliy agentligi bilan hamkorlikda talabalarimiz uchun Vatanimiz mustaqilligi o'z-o'zidan bunyodga kelmaganligi va uni ko'z qorachig'idek asrash borasida badiiy filmlar namoyishi tashkil etiladi.

Universitetda xorijiy hamkorlik asosida Xitoy Xalq Respublikasi, Belarus respublikasi, Rossiya Federatsiyalarining beshta OTMLari bilan o'n bitta ta'lim yo'nalishi va uchta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qo'shma dastur asosida 260 nafar talaba tahsil o'lmoqda. Ana shunday hamkorlik sa-

marasi natijasida universitetda o'tgan yili "Geologiya-qidiruv" va "Aviatsionik texnologiyalar" fakultetlari tashkil etildi. Buyurtmachi vazirlik, idora, korxonalar bilan birgalikda 57 ta ta'lim yo'nalishlari va 71 ta magistratura mutaxassisliklarining davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalarini va fan dasturlari takomillashtirilgan holda o'quv jarayoniga tatbiq etildi. O'quv rejalarida mavjud fanlar bo'yicha 85 ta videodars ishlab chiqildi. O'qitiladigan fanlarning o'quv-uslubiy majmualarining 70 foizi elektron ko'rinishga o'tkazildi. Ishlab chiqarish korxonasi va tashkilotlarida mutaxassislik kafedralarining 52 ta filiali tashkil etilib, ularda dars jarayonlari yo'lga qo'yildi. Takomillashtirilgan fan dasturlari asosida ehtiyojdan kelib chiqib 206 nomdagi yangi o'quv adabiyotlari (shu jumladan, 32 ta darslik, 33 ta o'quv qo'llanma, 141 ta o'quv-uslubiy ko'rsatmalar) yaratildi. O'MTV tomonidan o'tkazilgan "Yosh kitobxonlar" ko'rik-tanlovida universitet jamoasi "Kitob — tafakkur xazinasi", "Eng faol badiiy asarlar targ'ibotchisi", "Yosh ijodkor talaba", "Asarlardan yaralgan navolar" kabi yo'nalishlarda o'z bilimlari bilan ishtirok etdilar. Universitetning barcha fakultet va TTJlarida 64 ta wi-fi zona va yangi zamonaviy kompyuter xonalari mavjud. To'garaklarda talaba va magistraturamiz o'z izlanishlarini davom ettirmoqda. "Artel" kompaniyasining laboratoriyasi tashkil etilib, iqtidorli talaba-yoshlar tomonidan "Robototexnika" to'garagi yuritilmoqda.

Universitetim — mening faxrim

"Jismoniy tarbiya" kafedrasida universitetning tayanch kafedralaridan hisoblanadi. Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan sport turlari bo'yicha to'garaklar tashkil qilingan. Bunda muntazam ravishda sport musobaqalari o'tkazilib kelinmoqda. Shuningdek, bugungi kunda universitetda sportning jyu-jitsu turi bo'yicha energetika fakultetining 2-kurs talabasi Doniyor Baxtishodiyev va 4-kurs talabasi Umid Nabyev, Tog'-kon fakultetining 3-kurs talabasi Bobur Rah-

O'tgan yili 169 ta maqola xalqaro Scopus bazasidagi jurnallarda chop etildi. Joriy yilda esa ushbu ko'rsatkichni 400 taga yetkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, universitetning "TDTU xabarnomasi" ilmiy jurnali xalqaro talablarga tenglashtirildi. Jurnalning nomi "Texnika fanlari va innovatsiyalar" deb o'zgartirildi. Ayni keza jurnalni Scopus bazasiga kiritish, uning talablariga moslashtirish bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda.



chi xorijiy oliy ta'lim muassasalariga malaka oshirish va stajirovkalariga, 20 nafar bakalavriatura bitiruvchilari magistraturaga hamda 4 nafar ilmiy tadqiqotchi doktoranturaga o'qishga jalb qilindi. Joriy yilda ham 60 nafar professor-o'qituvchi, yosh ilmiy tadqiqotchi olimlar va talabalarni malaka oshirish, stajirovka, doktorantura va magistratura bo'yicha ta'lim olishga jalb qilish rejalashtirilgan. Ayni keza 65 nafar magistrantning dissertatsiya himoyalari bevosita O'zbekiston Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot institutlari hamkorligida tashkil etilmoqda.

Imjini oshirish — davr talabi

Universitetda talabalar, ilmiy-tadqiqotchilar va pedagog-xodimlar uchun WEB of Science, Scopus, Science Direct xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasidan foydalanish bo'yicha o'quv kurslari tashkil etildi. Ularning maqolalari ushbu bazaga kiritilgan jurnallarda chop etilishini ko'paytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

O'tgan yili 169 ta maqola xalqaro Scopus bazasidagi jurnallarda chop etildi. Joriy yilda esa ushbu ko'rsatkichni 400 taga yetkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, universitetning "TDTU xabarnomasi" ilmiy jurnali xalqaro talabalariga tenglashtirildi. Jurnalning nomi "Texnika fanlari va innovatsiyalar" deb o'zgartirildi. Ayni keza jurnalni Scopus bazasiga kiritish, uning talablariga moslashtirish bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda.

Universitet professor-o'qituvchilari va ilmiy izlanuvchilar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar, doktorantlarning tadqiqot mavzulari hamda magistrlik dissertatsiyalari va bitiruv-malaka-viy ishlari mavzulari mamlakatimizdagi muhandislik va texnik sohalarning za-

monaviy talablaridan kelib chiqib belgilanmoqda. Bu esa mamlakatimizda texnik ta'lim mutaxassislari tayyorlovchi yetakchi oliy dargoh nufuzini yanada oshirishda asosiy omil bo'lmoqda. Natijada nufuzli ishlab chiqarish korxonalar talablari asosida xo'jalik shartnomalari bajarilmoqda.

Fanning barcha sohalarida tadqiqot natijalarini baholab borish, strategik investitsiyalarni optimallashtirish va professor-o'qituvchilar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning keyingi yo'nalishlarini samarali aniqlashda xalqaro SciVal innovatsion veb-yechimlar to'plamidan foydalanib qarorlar qabul qilinmoqda. SciVal-tizimida Scopus ma'lumotlar bazasi asosida tahlil olib boriladi.

Professor-o'qituvchilarning nufuzli xalqaro ma'lumotlar bazalariga (Web of Science va Scopus) kiruvchi yuqori impakt faktorli jurnallarda maqola chop etish samaradorligi va sifatini oshirish bo'yicha xalqaro ekspertlar ishtirokida master-klass va seminar treninglar doimiy ravishda tashkil etilmoqda. Bularning natijasi sifatida 2018-yilda Scopus ma'lumotlar bazasiga kiruvchi jurnallarda 29 ta maqola chop etilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich o'tgan yili 118 tani tashkil etdi. Joriy yilning 5 oyida 146 taga yetkazildi. Oliy ta'lim dargohida h-indeksi uch va undan yuqori bo'lgan professor-o'qituvchilar soni 28 nafarga yetkazildi. Universitet xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi OTMLar ro'yxatiga kirishini ta'minlash bo'yicha tashkilotlar bazalarida universitet profilari to'liq shakllantirildi.

Amalga oshirilgan ishlarning barchasi pirovard maqsadi mamlakatimizning iqtisodiy barqarorligini oshirish uchun yetuk mutaxassislarni tayyorlashda juda katta zamin vazifasini bajaradi.

Nemis tili fanidan test savollari

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Lesen Sie den Text und erfüllen Sie dazu vier Aufgaben. Es gibt jeweils nur eine richtige Lösung.
 Albert Einstein wurde am 14. März 1879 als Sohn jüdischer Eltern in Ulm geboren. Kurz danach zog seine Familie nach München. Der Betrieb des Vaters ging nach einigen Jahren nicht mehr gut. Die Einsteins wanderten ohne ihren Sohn nach Mailand aus. Albert brach das Gymnasium ohne Abschluss ab und wechselte eigenständig an eine nichtkirchliche Schule in der Schweiz. Danach schloss er ein Studium am Polytechnikum (der Züricher Technischen Hochschule) mit einem Diplom als Fachlehrer für Mathematik und Physik ab. Er arbeitete beim Schweizer Patentamt. Weil diese Arbeit ihn nicht stark forderte, widmete er sich in seiner Freizeit weiter der theoretischen Physik. Während seiner Studienzeit lernte Einstein seine spätere Ehefrau kennen, mit der er zwei Söhne hatte.
 Im Alter von 26 Jahren veröffentlichte Albert Einstein seine bedeutendsten wissenschaftlichen Werke.
 Der nun weltberühmte Physiker arbeitete fortan als Direktor an verschiedenen Instituten. Er trennte sich von seiner Frau und heiratete seine Cousine Elsa Löwenthal. In den 20er-Jahren erhielt er für seinen Beitrag zur Quantenphysik den Nobelpreis für Physik. Einstein reiste in die USA, um Vorträge zu halten und so seine Theorien zu verbreiten.
 Er trat zwar bereits im Alter von 17 Jahren aus der jüdischen Religionsgemeinschaft aus, seine Herkunft machte es ihm dennoch schwer, wieder nach Deutschland zurückzukehren: Dort herrschte Adolf Hitler. Die letzten Jahre seines Lebens verbrachte Albert Einstein deshalb im amerikanischen Princeton.

№	Savol	A	B	C	D
61.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante. Albert Einstein ...	lebte kurz nach seiner Geburt in München	wurde in der Schweiz geboren	zog mit seiner Familie nach Mailand	hat das Gymnasium abgeschlossen
62.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Aussage.	Einstein und seine Gattin erzeugten zwei Kinder.	Einstein studierte an der Technischen Hochschule in Deutschland.	Einstein unterrichtete Mathematik und Physik am Polytechnikum.	Die Arbeit im Patentamt ermöglichte Einstein nicht, die Zeit für theoretische Physik zu finden.
63.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Aussage.	Den Nobelpreis bekam Einstein für seine Tätigkeit auf dem Gebiet der Physik.	Einstein wurde weltberühmt durch seine Tätigkeit als Direktor an verschiedenen Instituten.	26 Jahre lang schrieb Einstein seine bedeutendsten wissenschaftlichen Werke.	Wegen der Trennung von seiner Frau musste Einstein in die USA reisen.
64.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Aussage. Warum war es für Einstein schwer, nach Deutschland zurückzukehren?	Wegen der herrschenden Macht in Deutschland.	Wegen seiner Familie.	Wegen seiner politischen Ansichten.	Wegen seiner Gesundheit.

Lesen Sie den Text und lösen Sie danach vier Aufgaben. Es gibt jeweils nur eine Lösung.
Ein Job für sportliche Typen: Fahrradkurier Man sieht sie durch die Stadt radeln. Sie fahren sehr schnell, aber sie sind keine "normalen" Radfahrer. Sie sind Fahrradkurier. Rund 20 Kurier – Studenten und Schüler – radeln durch Freiburg. Auf ihrem Rucksack liest man: "Cityexpress: schnell und zuverlässig. Tel. 72691".
 Michael ist 18 und braucht Geld, weil er einen Laptop kaufen will. Also jobbt er in den Sommerferien als Fahrradkurier. Aber was transportiert ein Fahrradkurier?
 Alles, was nicht zu schwer ist (maximal 8 kg) und in den Rucksack passt. Es sind meistens Briefe und Dokumente.
 Michael fährt jeden Tag ca. 50 km und verdient 50-65 Euro. Das ist zwar nicht so viel für einen anstrengenden Tag, aber "Radfahren ist meine große Leidenschaft", sagt er, "und wenn ich denke, dass ich beim Radfahren auch ein bisschen Geld verdiene, dann finde ich diesen Job einfach super!"

65.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante. Die Fahrradkurier ...	unterscheiden sich von "normalen" Radfahrern	dürfen nicht so rasch durch die Stadt fahren	transportieren die Zeitung "Cityexpress"	müssen Hochschulbildung haben
66.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante. Ein Fahrradkurier transportiert ...	nicht schwere Sachen in seinem Rucksack	nur Briefe und Dokumente	Rucksäcke von "Cityexpress"	Laptops von "Cityexpress"
67.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Aussage.	Obwohl die Arbeit anstrengend ist, gefällt sie Michael.	Für "Cityexpress" jobbt Michael das ganze Jahr.	Michael spart Geld für eine Klassenfahrt nach Freiburg.	Die Handnummer von Michael ist 72691.
68.	Auf welche Frage gibt es keine Antwort im Text.	Wie lange arbeitet Michael für "Cityexpress"?	Wie groß ist das Gehalt von Michael?	In welcher Stadt arbeitet Michael?	Wozu braucht Michael Geld?

Lesen Sie den Text und lösen Sie danach vier Aufgaben. Es gibt jeweils nur eine Lösung.
Die alte Meistergeige
 Ein alter Straßenmusikant mit einer Geige kam in ein Zigarrengeschäft.
 "Kann ich meine Geige eine halbe Stunde hier lassen?", sagte er. "Ich muss zum Polizeibüro gehen. Dort braucht man nicht zu wissen, dass ich auf der Straße musiziere." "Legen Sie die Geige dort in der Ecke!" sagte der Besitzer des Zigarrengeschäftes.
 Der Alte legte die Geige auf den Tisch und ging fort. Kunden kamen und gingen. "Das ist ja eine herrliche Geige, eine alte Meistergeige", sagte ein feiner Herr. "Wollen Sie sie verkaufen?"
 "Das kann ich nicht, denn die Geige gehört mir nicht", entgegnete der Geschäftsmann.
 "Schade", sagte der Herr. "Zweitausend Mark zahle ich gern dafür. Hier sind hundert Mark als Anzahlung. Ich komme morgen wieder."
 Nach einer Stunde kam der alte Geiger zurück, um sein Instrument zu holen. Da bot ihm der Kaufmann fünfhundert Mark für die Geige.
 "Aber nein", sagte der Alte, "Die Geige verkaufe ich nicht."
 Da bot der Kaufmann tausend Mark und dann zwölfhundert. Endlich, bei fünfzehnhundert Mark, verkaufte der Straßenmusikant sein Instrument. Der Besitzer des Zigarrengeschäftes freute sich und glaubte, fünfhundert Mark verdient zu haben.
 Aber der feine Herr kam nicht wieder. Die hundert Mark konnte er dem Kaufmann ruhiglassen, denn von seinem Freund, dem alten Geiger, bekam er die Hälfte der fünfzehnhundert Mark.

69.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante. Warum wollte der arme Straßenmusikant seine Geige im Geschäft lassen? Wie war seine Erklärung?	Die Polizei könnte das Instrument konfiszieren.	Sein Freund sollte die Geige abholen.	Er hatte kein Geld und wollte seine Geige verkaufen.	Er wollte dem Kaufmann die Geige schenken.
70.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante. Warum erlaubte der Besitzer des Zigarrengeschäftes dem Musikanten, die Geige im Geschäft zu lassen?	Er wollte dem Musikanten helfen.	Er wollte ihm sein Instrument abkaufen.	Er hatte vor, das alte Instrument für sich zu behalten.	Er wartete auf den Besuch des feinen Herrn.

№	Savol	A	B	C	D
71.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante. Was wollte der feine Herr im Zigarrengeschäft?	Er wollte den Besitzer des Zigarrengeschäftes überzeugen, dass er am Kauf der Geige interessiert ist.	Er war ein guter Bekannter vom Besitzer des Geschäfts und wollte ihn besuchen.	Er wollte für sich Zigarren kaufen.	Er wollte für zweihundert Mark die alte Meistergeige kaufen.
72.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante. Warum kam der feine Kerl nicht wieder?	Er konnte die vereinbarte Summe nicht finden.	Von seinem Freund bekam er siebenhundertfünfzig Mark.	Er hat die Adresse vergessen.	Er wollte die Geige nicht mehr haben.

Lesen Sie den Text und lösen Sie danach vier Aufgaben. Es gibt jeweils nur eine Lösung. Sag mal — brauchst du Familie?
Susanne (17): Meine Eltern bemühen sich sehr, mich zu verstehen und meine Entscheidungen zu tolerieren. Schade nur, dass mein Vater in seinem Job viel unterwegs ist. Aber wir Frauen schmeißen den Laden schon.
Iris (16): Familie ist Stress. Ständig wird man zu Ausflügen mitgenommen, etwa zur Landesgartenschau, auf die man absolut keine Lust hat. Von Verständnis kann da nicht die Rede sein. Heiraten will ich später auf keinen Fall, Kinder haben schon gar nicht. Ich kann es nicht leiden, ständig eingeschränkt zu sein.
Ramona (18): Von Zeit zu Zeit kriselt es ganz schön. Vor allem mit meiner Mutter verstehe ich mich ansonsten aber super und mit meiner jüngeren Schwester sowieso: Wir haben den gleichen Freundeskreis. Allein zu wohnen könnte ich mir nicht vorstellen; vielleicht zusammen mit Freunden.
Stephie (13): Wir unternehmen zwar nicht viel zusammen, doch wichtig ist mir die Familie schon. Nervig sind Familienfeste. Meine Eltern interessiert vor allem, was ich in der Schule mache. Auch über Jungs rede ich mit ihnen.

73.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante. Wer kann nicht mit dem Verständnis der Familienangehörigen rechnen?	Iris	Susanne	Ramona	Stephie
74.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante. In der Familie von ... wird noch eine Tochter erzeugt.	Ramona	Susanne	Iris	Stephie
75.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante.	Susannas Vater ist oft beruflich außer Haus.	Iris will später für ihre eigenen Kinder mehr Verständnis haben.	Besonders wichtig findet Stephanie die Familienfeste.	Ramonas Schwester stört sie, sich mit Freunden zu unterhalten.
76.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante.	Die Eltern von Susanne sind tolerant zu ihr.	Stefis Familie unternimmt viele Ausflüge ins Grüne.	Ramonas Mutter hat kein Verständnis für ihre Freunde.	Iris hat die Absicht, später ihre eigene Familie zu haben.

Lesen Sie den Text und lösen Sie dazu vier Aufgaben. Es gibt jeweils nur eine richtige Lösung.
Ein Tag in Köln
 Niklas ist zum ersten Mal in Köln. Köln ist eine Stadt im Nordwesten von Deutschland. Die Stadt ist bekannt für ihr besonderes Bier und für den Karneval. Am Karneval ziehen alle Bewohner von Köln Masken und Kostüme an und tanzen, trinken und singen gemeinsam auf den Straßen.
 Das Bier aus Köln hat den Namen "Kölsch". Niklas probiert das Bier: Es schmeckt mild. Er entscheidet sich dennoch, es nicht zu kaufen — er trinkt normalerweise keinen Alkohol.
 Direkt vor dem Hauptbahnhof staunt Niklas über den Kölner Dom. Der Dom ist eine riesige, katholische Kirche. Im 18. Jahrhundert war es für einige Zeit das größte Gebäude der Welt. Niklas ist beeindruckt von der Architektur der Kirche. Nicht weit entfernt vom Dom fließt der Rhein. Dort besucht Niklas ein Schokoladenmuseum. Es gibt dort einen Brunnen aus Schokolade.
 Zuletzt entdeckt Niklas einen kleinen Laden mit Schmuck. Er heißt "Rosa Rosa". Dort kauft er sich einen Anhänger mit dem Symbol des Kölner Doms. Es wird ihm immer an die Stadt erinnern. Es ist ein Souvenir.

77.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante.	Niklas ist ein Gast in Köln.	Niklas ist ein Kölner.	Karneval ist eine kirchliche Veranstaltung.	Am Karneval trinkt man keinen Alkohol.
78.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante. Das Bier schmeckt Niklas ...	sanft	intensiv	sauer	bitter
79.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante.	Neben dem Hauptbahnhof befindet sich die große katholische Kirche.	Der Kölner Dom ist auch heute das größte Gebäude der Welt.	Das Schokoladenmuseum ist im 18. Jahrhundert gebaut.	Im Museum kann man Souvenirs aus Schokolade kaufen.
80.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante. Was hat Niklas in einem kleinen Geschäft beschaft?	Ein Schmuckstück mit dem Symbol des Kölner Doms.	Ein Souvenir aus Schokolade.	Ein Buch über Architektur der Kirche.	Kölschbier.

(Davomi kelgusi sonlarda.)

Kimyo fanidan test savollari

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

№	Savol	A	B	C	D
51.	Quyidagi reaksiya uchun koeffitsiyentlar yig'indisini aniqlang. $C_2H_4(OH)_2 + xO_2 \rightarrow yCO_2 + 4H_2O$	12	11	10	13
52.	X^{-2}, Y^{+3}, Z^0 zarrachalari ikkita elektron chiqarsa, qanday zarracha holiga o'tadi?	0; +5; +2	-4; +1; -2	0; +1; -2	-4; +5; +2
53.	$C_6H_5CH_2CH_3 + KMnO_4 + H_2SO_4 \rightarrow \dots$ Oksidlanish-qaytarilish reaksiyasini tugallang hamda chap tomondagi koeffitsiyentlar yig'indisini aniqlang.	35	84	50	56
54.	Quyidagi reaksiyani tugallang va tenglang. Molekular tuzilishi moddalar oldidagi koeffitsiyentlar yig'indisini toping. $SO_2 + KMnO_4 + H_2O \rightarrow MnSO_4 + K_2SO_4$	9	5	14	6
55.	H_2Se sulfat kislotasi ishtirokida kaliy bikromat bilan oksidlandi. 14,7 g oksidlovchi reaksiyaga kirishganligi ma'lum bo'lsa, hosil bo'lgan Se miqdori (mol) hisoblang.	0,15	0,2	0,25	0,3
56.	$Cr(OH)_3 + Cl_2 + NaOH \rightarrow Na_2CrO_4 + NaCl + H_2O$ Reaksiyada 17,55 g NaCl hosil bo'lsa, sarflangan oksidlovchi massasi (g) hisoblang.	10,65	7,1	17,75	14,2
57.	100 g 45%li natriy yodid eritmasining ma'lum qismi elektroliz qilindi. Hosil bo'lgan eritmaga yetarli miqdorda kumush nitrat eritmasi quyilganda umumiy massasi 58,6 g cho'kma ajraldi. Elektroliz uchun sarflangan faradey miqdori aniqlang.	0,1	0,15	0,05	0,2
58.	200 g 5%li natriy gidroksid eritmasi elektroliz qilinishi natijasida molyal konsentratsiyasi 2,5 mol/kg bo'lgan eritma hosil bo'ldi. Elektroliz jarayoni uchun sarflangan faradey miqdori aniqlang.	10	7,5	5	2,5
59.	Mis (II)-sulfat eritmasi tuz tugaguncha elektroliz qilnganda eritma massasi 2/29 qismga kamaydi. Daslabki eritma konsentratsiyasini (mol/kg) aniqlang.	1	1,5	2	2,5
60.	XB_r va YB_r suyuqlanmalari solingan idishlar ketma-ket tok manbaiga ulangan. Birinchi idish katodida 3,6 mol X va ikkinchi idish katodida 134,4 g Y hosil bo'ldi. Y elementning nisbiy atom massasi aniqlang.	56	70	27	84
61.	Quyidagi o'zgarishlar asosida Si tutgan X va Fe tutgan Y moddalarning molar massalari (g/mol) yig'indisini toping. $SiO_2 \xrightarrow{-C} \dots$ $O_2(mol) \xrightarrow{Na_2CO_3} B \xrightarrow{H_2O, CO_2} X$ $\dots \xrightarrow{gematit} B \xrightarrow{H_2O} Y$	310	185	232	168
62.	Quyidagi o'zgarishlar asosida uglerod tutgan X va kremniy tutgan Y moddalarning molar massalari (g/mol) yig'indisini toping. $1 \text{ mol } K_2CO_3 \xrightarrow{-CO_2} X$ $X \xrightarrow{-SiO_2} Y$ $Bu(OH)_2(1 \text{ mol}) \xrightarrow{Y} \dots$	313	194	260	270
63.	Quyidagi o'zgarishlar asosida rux tutgan X va Y moddalarning molar massalari (g/mol) yig'indisini toping. Rux shpati $\xrightarrow{(-)}$... $(CO(mol)) \rightarrow X \xrightarrow{(HNO_3(mol))} Y$	276	292	404	326
64.	Qizdirilgan mis (II)-oksididan 44,81 (n.sh.) ammiak gazi o'tkazildi. Olingan gazlar aralashmasi (n.sh.) HCl eritmasidan o'tkazilganda 5,61 (n.sh.) gaz kislotasi eritmasiga yutilmay qoldi. Ammiakning qancha qismi CuO bilan ta'sirlashgan?	1/4	1/3	3/4	2/3
65.	8,83 g ammoniy karbonat va natriy nitrat aralashmasi to'liq parchalanganda 4,83 g qattiq qoldiq olindi. Dastlabki aralashmadagi azot atomlari sonini aniqlang.	0,13 · N_A	0,34 · N_A	0,1 · N_A	0,18 · N_A
66.	Sulfat angidrid, kislorod va neondan iborat aralashmaning o'rta molar massasi 40 g/mol. Aralashma (V_2O_5 ishtirokida) qizdirilganda yakuniy aralashmada ikki xil gaz qoldi. Oxirgi aralashmaning o'rta molar massasi (g/mol) hisoblang.	50	40	30	60
67.	200 kg fosforit talqoni tarkibida fosfor tutgan birikmaning massa ulushi 77,5% bo'lsa, necha kilogramm pretsipitat fosforit talqoni o'rta miqdordagi 46 g kislotali va o'rta tuz hosil bo'ldi. O'rta tuzning massasi (g) hisoblang.	172	86	258	344
68.	25,6 g kislotali oksid (EO_2) natriy gidroksid eritmasiga to'liq yutirilganda teng mol miqdordagi 46 g kislotali va o'rta tuz hosil bo'ldi. O'rta tuzning massasi (g) hisoblang.	25,2	24	27,6	20
69.	Fosfor (V) oksidning 1/3 qismi issiq suvda, qolgan qismi sovuk suvda eritilganda umumiy massasi 51,6 g bo'lgan kislotalar olindi. Tajriba uchun olingan fosfor (V) oksid massasi (g) hisoblang.	42,6	56,8	14,2	28,4
70.	1 mol mis (II)-nitrat termik parchalanganda 2,5 mol kislorod atomi tutgan qattiq qoldiq olindi. Reaksiyada ajralgan gaz hajmini (l, n.sh.) hisoblang.	39,2	33,6	19,6	16,8
71.	29,6 g natriy oksidi va peroksididan iborat aralashmada Na va O atomlari soni nisbati 8:7 bo'lsa, aralashmadagi natriy oksidning massasi (g) toping.	6,2	9,3	12,4	24,8
72.	Natriy gidrokarbonat 80% unum bilan parchalanganda 29,6 g qattiq qoldiq olindi. Reaksiyada ajralgan CO_2 hajmini (l, n.sh.) aniqlang.	4,48	6,72	2,24	3,36
73.	Temirning yarmi kislorodda qizdirilganda 46,4 g qo'sh oksid hosil bo'ldi. Qolgan yarmini eritish uchun qancha hajm (litrl) 0,4M li xlorid kislotasi talab etiladi?	3	2	1,5	1
74.	Mis (I)-oksid va mis (II)-sulfidlar aralashmasi o'zaro ta'sirlashganda tarkibida 0,8 mol Cu va 3,2 g S atomlari tutgan qattiq qoldiq olindi. Reaksiyada ajralgan gaz hajmini (l, n.sh.) aniqlang.	2,24	3,36	1,12	4,48
75.	0,5 mol mis nitrat kislotasi eritmasida eritilishi natijasida $D(H_2e) = 8,5$ bo'lgan gazlar aralashmasi hosil bo'ldi. Reaksiyada sarflangan nitrat kislotasi miqdori (mol) hisoblang.	1,4	1,5	1,2	1,3
76.	Aluminiy nitrat va ishqoriy metall nitritidan iborat aralashma 400 °C gacha qizdirilganda 34,2 g qattiq qoldiq hosil bo'ldi. Ajralgan gazlar aralashmasi 200 g 24%li natriy gidroksid eritmasiga yutirilganda 0,1 mol gaz yutilmay qoldi. Metallni aniqlang.	natriy	litniy	kaliy	rubidiy
77.	60 g FeO va CuO dan iborat aralashma mo'l miqdordagi ammiak bilan qaytarildi. Olingan metallar 588 g 30%li HNO ₃ kislotasi eritmasi bilan to'liq ta'sirlasha olsa, CuO massasi (g) aniqlang. (Reaksiya natijasida NO hosil bo'ladi)	24	16	8	12
78.	$n(O) = 1,5$ mol bo'lgan KNO_3 va $Cu(NO_3)_2$ aralashmasida kaliy atomlari umumiy atomning 1/8 qismini tashkil etadi. Ushbu aralashma to'liq parchalanganda hosil bo'lgan gazlar hajmini (l, n.sh.) hisoblang.	8,96	4,48	6,72	11,2
79.	Monogalogenalken tarkibida 7ta vodorod atomlari mavjud bo'lsa, unga to'g'ri keladigan ochiq zanjirli, uglerod atomlari tarmoqlanmagan izomerlar soni eng ko'pida nechta? (Faroviy izomerlar hisoblanmasin.)	6	8	5	7
80.	Fe^{2+} ioniga izoelektron bo'lgan organik zarrachalarni ko'rsating. 1) propen; 2) xlorometan; 3) CH_2Cl ; 4) etanol	1; 3	2; 4	1; 4	2; 3
81.	Molar massasi 86 g/mol bo'lgan uglevodorodning ikkilamchi uglerod tutgan izomerlar soni eng ko'pida nechta?	4	2	3	5
82.	Agar alkan molekulasidagi uglerod atomlari orasidagi σ -bog'lar soni m ga teng bo'lsa, molekuladagi jami atomlar sonini aniqlang.	$3m + 5$	$3m + 1$	$3m + 4$	$3m + 2$
83.	Dixlorosikloalkan tarkibida 6ta H atomi mavjud bo'lsa, uning siklik izomerlari soni eng ko'p bilan nechta bo'lishi mumkin? (Fazoviy izomerlar hisobga olinmasin.)	9	7	5	8
84.	Quyidagi qaysi o'zgarishlarda molekula tarkibidagi uglerod qaytariladi? 1) etanal \rightarrow etanol; 2) toluol \rightarrow benzoil kislotasi; 3) propanal \rightarrow propan kislotasi; 4) propen kislotasi \rightarrow propan kislotasi; 5) 2-nitropropan \rightarrow 2-aminopropan; 6) sikloksen \rightarrow sikloheksan	1, 4, 6	2, 3, 6	1, 3, 5	2, 4, 6

(Davomi kelgusi sonlarda.)

Geografiya fanidan test savollari

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

N°	Savol	A	B	C	D
47.	Shimoliy yarimsharda joylashgan qaysi davlatlarda yirik ko'mir konlari mavjud?	Germaniya, Kanada	Rossiya, O'zbekiston	Xitoy, Mongoliya	Hindiston, Portugaliya
48.	Jahonning qaysi davlatlarida oqar suvlarni qayta taqsimlashda katta ishlar amalga oshirilgan? 1) Meksika; 2) Ispaniya; 3) Misr; 4) Eron; 5) AQSH; 6) Rossiya	1, 3, 5	1, 4, 6	2, 3, 4	2, 4, 5
49.	Quyidagi qaysi davlatlarning qirg'oq sayozligidan qalayi qazib olinadi?	Indoneziya, Tailand, Malayziya	Kongo Res., JAR, Nigeriya	Vyetnam, Filippin, Yangi Gvineya	Hindiston, Buyuk Britaniya, Meksika
50.	Asaka shahridagi avtozavodga Jizzax, Navoiy, Andijon shaharlaridagi korxonalar akkumulyatorlar, avtomobil elektr o'tkazgichlari, avtomobil o'rindiqdirlari yetkazib bersa, bunday ishlab-chiqarish shakli nima deb ataladi?	kooperativlashuv	sanoat rayonlari	geografik mehnat taqsimoti	intensiv xo'jalik yuritish
51.	O'zbekistondagi neftni qayta ishlash markazlarini aniqlang. 1) Muborak; 2) Oltiariq; 3) Qandim; 4) Farg'ona; 5) Qorovulbozor; 6) Qorako'l.	2, 4, 5	1, 2, 6	3, 4, 6	1, 3, 4
52.	Toshkent iqtisodiy rayonida yalpi sanoat mahsulotining necha foizi og'ir sanoat hissasiga to'g'ri keladi?	66,6	80	75	70,3
53.	Toshkent iqtisodiy rayoni quyidagi qaysi sanoat mahsulotlarini chetga eksport qiladi?	ip va ipak gazlamalar, elektr energiya	qo'ng'ir ko'mir, tabiiy gaz mahsulotlari	neft quvurlari, mashina qismlari	neftni qayta ishlash mahsulotlari, elektronika jihozlari
54.	Asosiy millati jami aholisining 95% dan ortiq qismini tashkil etuvchi davlatlarni belgilang.	Irlandiya, Daniya	Marokash, Ukraina	Jazoir, Fransiya	Zimbabve, Ispaniya
55.	Aholisining milliy tarkibiga ko'ra asosiy millati jami aholisining 70-95% qismini tashkil etuvchi davlatlarni belgilang.	Ispaniya, Jazoir	Norvegiya, Polsha	KXDR, Gruzziya	Madagaskar, Daniya
56.	1986-yilda "Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati" tarkibiga qaysi davlat qabul qilingan?	Ispaniya	Niderlandiya	Andorra	Chexiya
57.	Yevropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasi tarkibida dastlab qaysi davlat bo'lgan?	Buyuk Britaniya	Albaniya	Serbiya	Makedoniya
58.	Hududning korxonalarini joylashtirish uchun mo'ljallangan qulay qismi nima deyiladi?	sanoat parki	majmua	ixtisoslashish	integratsiya
59.	Shimoliy o'rmon mintaqasidagi qaysi davlatlar o'rmon va yog'ochsozlik ishlab chiqarishda xalqaro ixtisoslashuvga ega?	Finlandiya, Kanada	Sheysariya, Norvegiya	Rossiya, Portugaliya	AQSH, Niderlandiya
60.	Yevropadagi qaysi mamlakatning maqomi noma'lum?	Gibraltar	San-Marino	Vatikan	Serbiya
61.	Yevropa aholisining yosh-jins tarkibida keksa yoshdagilarning hissasi yuqori bo'lgan davlatlarni belgilang.	Belgiya, Fransiya	Vengriya, Polsha	Xorvatiya, Portugaliya	Slovakiya, Albaniya
62.	Lankashir va Yorkshir qaysi davlatning eski to'qimachilik rayonlari hisoblanadi va hozir ham faoliyat ko'rsatadi?	Buyuk Britaniya	Shvetsiya	Norvegiya	Estoniya
63.	Yevropaning quyidagi qaysi davlatida havo transporti eng yaxshi rivojlangan?	Buyuk Britaniya	Norvegiya	Daniya	Avstriya
64.	Osiyoning qaysi davlatlarida tug'ilish va tabiiy o'sish ko'rsatkichlari past?	Gruzziya, Kipr	Yaman, Pokiston	Afg'oniston, Eron	Kambodja, Singapur
65.	Janubi-g'arbiy Osiyoning, asosan, sug'orish asosida tarkib topgan voha va vodiylar dehqonchiligida qanday ekinlarni yetishtirish ahamiyatli hisoblanadi?	paxtachilik, donchilik, xurmo	sitrus bog'dorchilik, uzumchilik, sholi	arpa, shakarqamish, poliz mahsulotlari	sholi, choy, sitrus mevalar
66.	O'zbekiston va Tojikistonning tog' va tog'oldi hududlarida chorvachilikning qaysi tarmoqlarini yetishtirish muhim hisoblanadi?	pillachilik, asalarichilik	ylqichilik, qoramolchilik	qora ko'chilik, echkichilik	cho'ch-qachilik, yilqichilik
67.	Monroviya quyidagi qaysi davlatning poytaxti?	Liberiya	Zambiya	Janubiy Sudan	G'arbiy Sahroyi Kabir
68.	Avstraliyaning qaysi shahrida to'qimachilik korxonasi joylashgan?	Ballarat	Nyukasl	Klonkarri	Xobart
69.	Qaysi orol Okeaniyada joylashgan va dunyoning yirik turizm va sayyohlik markaziga aylangan?	Fiji	San Palau	Dominika	Sent-Lusiy
70.	Okeaniyadagi qaysi orol(mamlakat)ning iqtisodiyoti nisbatan yaxshi rivojlangan?	Fiji	Solomon	Niue	Yangi Kaledoniya
71.	Hozirgi vaqtda Afrikada boshqaruv shakliga ko'ra respublika bo'lgan mamlakatlar soni qancha?	52 ta	59 ta	55 ta	57 ta
72.	Amerika qit'asi kashf etilgandan so'ng, ko'p o'tmay, Janubiy Ammerika asosan, quyidagi qaysi davlatlar tomonidan bosib olingan va mustamlakaga aylantirilgan edi?	Ispaniya, Portugaliya	Niderlandiya, Buyuk Britaniya	Daniya, Germaniya	Shvetsiya, Fransiya

N°	Savol	A	B	C	D
73.	X.Kolumb Amerikaga necha marta sayohat qilgan?	4	3	2	1
74.	Respublikamizda qurilgan qaysi suvomborning maydoni eng katta?	Kattaqo'rg'on	Chorvoq	Tuyabo'g'iz	Tolimarjon
75.	Necha balli zilzila ro'y berganda ko'pchilik sezmaydi. Sokin vaziyatlardagi odamlargina sezadi?	2	1	3	4
76.	Quyidagi qaysi daryolarning qayir va deltalarida har yili qayta-qayta sholi ekib hosil olinadi?	Braxmaputra, Mekong	Xangan, Gerirud	Kimgan, Murg'ob	Dajla, Amudaryo
77.	Janubi-g'arbiy Osiyoning qaysi davlatlarida urbanizatsiya darajasi 91-98% ni tashkil etadi?	Isroil, Qatar	Turkiya, Kipr	Eron, BAA	Saudiya Arabistoni, Qatar
78.	Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasi tarkibiga qaysi davlatlar kiradi?	Laos, Vyetnam	Malayziya, Koreya Res	Singapur, Xitoy	Kambodja, Shri-Lanka
79.	Konteyner tashuvchi kemalarning tonnaji bo'yicha jahonning "birinchi beshligi" tarkibiga kiruvchi mamlakatlarni belgilang.	Panama, Tayvan	Norvegiya, Tailand	Singapur, Myanma	Ekvador, Misr
80.	Jazoir bilan chegaradosh bo'lgan davlatni belgilang.	Liviya	Nigeriya	Togo	Chad
81.	Kongo Respublikasi bilan chegaradosh bo'lgan davlatni belgilang.	Gabon	Niger	Janubiy Sudan	Zambiya
82.	Markaziy Amerika mamlakatlari tarkibiga kiruvchi davlatlarni belgilang.	Gvatemala, Kosta-Rika	Ekvador, Peru	Surinam, Boliviya	Salvador, Venesuela
83.	Hozirgi vaqtda qaysi qo'ltiqlar neft mahsulotlari bilan eng ko'p ifloslangan?	Biskay, Fors	Amundsen, Meksika	Alyaska, Panama	Karpen-tariya, Fors
84.	Qaysi davlatlarning aholisi tarkibida Islom dinining sunniylik o'nalishiga e'tiqod qiluvchilar asosiy o'rin egallaydi?	Pokiston, Afg'oniston	Eron, Gruzziya	Ozarbayjon, Armaniston	Tojikiston, Yaman
85.	Markaziy Osiyo tabiiy geografik o'lkasiga quyidagi qaysi hududlar kiradi?	Xitoy va Mongoliya hududidagi tog'lar va cho'llar kiradi	Hind-Gang pasttekisligi Himolay tog' tizmalarining janubiy qismlari kiradi	Orolbo'yi pasttekisliklari, Qizilqumning juda katta shimoliy qismi kiradi	Ustyurt platosidan to'zoq'iston past tog'lari-gacha bo'lgan hududlar kiradi
86.	Sharqiy Xitoyda quyidagi qaysi foydali qazilmalarning juda katta zaxirasi mavjud?	toshko'mir, temir	oltin, olmos	uran, qo'ng'ir ko'mir	neft, tabiiy gaz
87.	O'rta Osiyoning subtropik iqlim mintaqasiga qaysi hududlar kiradi?	Turkman-Xuroson tog'lari, Atrik vodiysi	Sulton-Uvays tog'lari, Balxashbo'yi tekisligi	Janubiy Tyanshan tog'lari, Turon tekisligi	G'arbiy Tyanshan tog'lari, Murg'ob vodiysi
88.	Qishda Qozog'iston kichik o'lkasi iqlimiga xos bo'lgan iqlimiy xususiyatni belgilang.	iliq kunlarning kam bo'lishi	haroratning nisbatan yuqori bo'lishi	qishki va yozgi yog'inlarning miqdori turlichaligi	sovuq kunlarning kam bo'lishi
89.	Old Osiyo shimoldan qaysi tabiiy geografik o'lka bilan chegaradosh?	Sharqiy Yevropa	O'rta Yevropa	G'arbiy Sibir	Shimoliy Yevropa
90.	2012-yil ma'lumoti bo'yicha respublikamizning aholi soniga ko'ra katta shaharlarini belgilang.	Qarshi, Marg'ilon	Urganch, Andijon	Navoiy, Nukus	Chirchiq, Buxoro
91.	Toshkent viloyatining qaysi tumanida Quyosh energiyasidan foydalanadigan "Fizika-Quyosh" inshooti faoliyat ko'rsatmoqda?	Parkent	Qibray	Ohangaron	G'azalkent
92.	2012-yilda respublikamiz bo'yicha amalga oshirilgan eksportning necha foizi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelgan?	27,5	35	36,8	29,9
93.	Subekvatorial kengliklarda nechta fasl ajratiladi?	ikkita	bitta	to'rtta	uchta
94.	Janubi-g'arbiy Osiyo subregioniga quyidagi qaysi hududlar kiradi?	Fors ko'rfazi davlatlari, Arabiston yarimoroli	Eron tog'ligi, Dekan platosi	Arabiston yarimoroli, Gobi cho'li	Rub-Al-Xali cho'li, Dekan platosi
95.	Pireney yarimorolining janubi-g'arbiy qismida joylashgan davlatni belgilang.	Portugaliya	Monako	Norvegiya	Niderlandiya
96.	Argentina shimoldan qaysi davlat bilan chegaradosh?	Boliviya	Urugvay	Ekvador	Chili
97.	Quyidagi qaysi davlatlarda ishlab chiqariladigan elektroenergiyasining 54-72%i AESlarning hissasiga to'g'ri keladi?	Belgiya, Koreya Res	Yaponiya, Hindiston	Avstriya, AQSH	Kanada, Xitoy
98.	Jahonda quyidagi qaysi davlatlar suv qalqishi energiyasi zaxiralari bilan yaxshi ta'minlangan?	Fransiya, Kanada	Hindiston, Gretsiya	Norvegiya, Daniya	Shvetsiya, Kuba
99.	Yevropadagi qaysi davlatlarda qora metallurgiya sanoat tarmog'i rivojlangan? 1) Chexiya; 2) Serbiya; 3) Vengriya; 4) Belgiya; 5) Fransiya; 6) Ruminiya	1, 4, 5	1, 3, 6	2, 4, 6	2, 3, 5
100.	Yevropaning qaysi davlatlarida aluminiy ishlab chiqarish rivojlangan? 1) Vengriya; 2) Fransiya; 3) Ispaniya; 4) Buyuk Britaniya; 5) Gretsiya; 6) Chexiya	1, 2, 5	1, 3, 4	3, 4, 5	2, 4, 6

GEOLOGIYA FANLARI UNIVERSITETI

2020/2021-O'QUV YILI UCHUN QABUL E'LON QILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi "Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tizimida geologiya fanlari universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4740-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilgan **Geologiya fanlari universiteti** 2020/2021-o'quv yili uchun qabul e'lon qiladi. Universitet bitiruvchilari Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tizimidagi korxonalar va tashkilotlarda **ish bilan ta'minlanadi**.

Davlat buyurtmasi asosida o'qishga qabul qilish parametrlarining ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklari va o'qitish tillari bo'yicha taqsimlanishi.

BAKALAVRIAT

№	Ta'lim yo'nalishlari	Jami	Davlat granti asosida			To'lov-kontrakt asosida		
			Jami	O'zbek	Rus	Jami	O'zbek	Rus
Universitet bo'yicha jami		200	80	60	20	120	90	30
1.	Geologik tasvirlash, foydali qazilma konlarini izlash va qidirish	50	20	10	10	30	15	15
2.	Neft va gaz geologiyasi	50	20	10	10	30	15	15
3.	Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi	25	10	10		15	15	
4.	Foydali qazilma konlarini izlash va qidirishning geofizik usullari	25	10	10		15	15	
5.	Geologiya-qidiruv ishlari texnikasi va texnologiyasi	25	10	10		15	15	
6.	Geologiya-qidiruv ishlari iqtisodiyoti	25	10	10		15	15	

MAGISTRATURA

№	Magistratura mutaxassisliklari	Davlat granti asosida		
		Jami	O'zbek	Rus
Universitet bo'yicha jami		40	24	16
1	GAT-texnologiyalari va yerni masofadan zondlash usullari	10	6	4
2	Geokimyoy, mineralogiya va petrologiya	10	6	4
3	Ruda va noruda foydali qazilma konlarini izlash va qidirish	10	6	4
4	Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi	10	6	4

GEOLOGIYA FANLARI UNIVERSITETIGA

o'qishga kirish uchun abituriyentlar onlayn tarzda — Davlat test markazining veb-sayti (www.abitur.dtm.uz) hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (www.my.gov.uz) orqali ro'yxatdan o'tadi.

ALOQA MARKAZI
(CALL CENTER) ish vaqti:
soat 09:00 dan 18:00 gacha,
yakshanba — dam olish kuni.
Tel.: (+998) 71 246 54 51.

SAMARQAND VETERINARIYA MEDITSINASI INSTITUTINING TOSHKENT FILIALI

2020/2021-O'QUV YILI UCHUN QABUL E'LON QILADI

2020/2021-o'quv yilida Samarqand veterinariya meditsinasi institutining Toshkent filialida bakalavriatning sirtqi ta'lim shakli bo'yicha davlat buyurtmasi asosida o'qishga qabul qilish parametrlari

№	Shifr	Ta'lim yo'nalishlari nomi	2020/2021-o'quv yili uchun qabul parametrlari
1	5410600	Zooinjeneriya (turlari bo'yicha)	50
2	5440100	Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha)	25
3	5440300	Veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishlari	25
4	5440400	Veterinariya sanitariya ekspertizasi	25

2020/2021-o'quv yilida Samarqand veterinariya meditsinasi institutining Toshkent filialida bakalavriatning kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha davlat buyurtmasi asosida o'qishga qabul qilish parametrlari

№	Shifr	Ta'lim yo'nalishlari nomi	2020/2021-o'quv yili uchun qabul parametrlari		
			Jami	Grant	Kontrakt
1	5230100	Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)	25	10	15
2	5230900	Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)	25	10	15
3	5410600	Zooinjeneriya (turlari bo'yicha)	50	20	30
4	5440100	Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha)	150	60	90
5	5440300	Veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishlari	25	10	15
6	5440400	Veterinariya sanitariya ekspertizasi	25	10	15
jami			300	120	180

Hujjatlar 2020-yil 20-iyundan 20-iyul (shu kuni ham kiradi) gacha onlayn qabul qilinadi.

Manzil: Toshkent viloyati, Zangiota tumani, O'rtaovul QFY, A. Temur ko'chasi, Samarqand veterinariya meditsinasi institutining Toshkent filiali.
Murojaat uchun telefonlar: (99) 838-41-19, (97) 137-11-50, 344-93-40.

14 "Toqqa chiqish uchun faqat istakning o'zi kamlik qiladi, cho'kich kerak, arqon kerak, ildamlig-u matonat kerak..."

Yo'qotilgan muhabbat

Bu voqea taxminan 10 yil oldin sodir bo'lgandi. Atrofi o'rmon bilan qoplangan kichik bir shaharchada yashardim. Bir kuni shu yaqin atrofdagi qishloqlarga sayohat qilgim keldi. Ayniqsa xushmanzara o'rmonlar ichida o'zimni baxtiyor sezardim. Kerakli buyumlarni joylagach, mashinamni o't oldirib, yo'lga ravona bo'ldim. Kuni bo'yi o'rmonlar orasidagi ko'hna qishloqlarni kezdim. Quyosh qizdirar, osmon musaffo edi. Daraxtlarda sayrayotgan qushlarning ovozi ko'ngilni shu qadar yayratar-diki, asti qo'yaverasiz...

Mashinam birdan to'xtab qoldi. Odatda bunday sayohatlarda u sira pand bermasdi. Benzin tugab qolgan ekan. Yaqinroqdagi biror shaharchadan biroz bo'lsa-da benzin topish haqida o'yladim. Ammo qayerdaligimni aniq bilmasdim. Shunda so'qmoq bo'ylab ketayotgan bir qizni uchratib qoldim. Uning qo'lida gullar, uzun ko'yulakda, tim qora sochlari quyoshda yaltirar, juda go'zal edi.

— Salom, men adashib qoldim, qayerdaligimni aytolmaysizmi? — Qiz biroz qo'rqandek tuyuldi. Yanada yumshoqlik bilan so'radim. — Mashinamning benzin tugab qoldi, qayerdan biroz bo'lsa-da benzin topsam bo'ladi? — Uning hayratga to'la ko'zlariga menga muloyim tikildi. "U judayam chiroyli qiz".

— Bilmayman, — dedi u, — balki men bilan qishlog'imizga borsang, yordam berishar.

U yo'l boshlagan so'qmoq bilan keta boshladik. Xaritada ko'rsatilmaganiga qaraganda qishloq judayam kichik bo'lsa kerak, deb o'yladim ancha uzoq yurganimizdan so'ng. Haqiqatan ham qishloq juda xaroba, kichik, ko'rimsiz ekan. Uylarning barchasi qora rangda, ustiga ustiga judayam kichkina qurilgan. Hovlisi yovvoyi hayvonlar bilan to'la edi. Qiz meni ichkariga taklif qildi. Uy saranjom-sarishta bo'lishiga qaramay menga juda ham g'alati tuyuldi. O'choqda ovqat pishib yotardi. Shunda judayam och qolganimni his qildim. Shunday zamonaviy hayotda ular hamon o'choqda ovqat qilishar ekan. Ehtimol, pullari yo'qdir, degan o'y kechdi xayolimdan. Qizning ota-onasi judayam yaxshi insonlar ekan, ammo kiyimlari oddiy, yupun, jundan to'qilgan edi.

— O'tir, — dedi qizning otasi va menga ichimlik uzatdi. Ichimlik to'q jigarrang bo'lib, ta'mi ham o'zgacha edi. Shunga qaramay bu yerda o'zimni ancha yengil his qilardim. Ovqatlanib bo'lgach undan benzin so'radim. U qiziga g'alati bir nigoh tashladi-yu, menga yuzlandi:

— Benzin... nima u?

— Biror joyga bormoqchi bo'lsangiz qanday borasiz?

— Ot bilan.

Nahotki ularning mashinasi ham bo'lmasa, degan hayrat ko'zlarimda aks etib tursa-da, indamadim. Kuni bilan shu ajib qishloqda qoldim, birga ovqatlandik, keyin uy sohibining qizi bilan tashqariga chiqdik. Qizning ismi Mary edi.

— Biznikiga mehmonlar deyarli kelmaydi. Shuning uchun begona odamlarni kam uchratganman, — derdi Mary jilmayib. Biz maroqli suhbat quardik, shunda Mary birdan g'amgin bo'lib qoldi. Undan buning sababini so'radim.

— Bu haqida senga aytolmayman.

Ayoni shuki, tong otmasidan bu yerdan ketishing kerak.

Uning so'zlariga tushunmadim, lekin o'zimni u bilan bir necha soat bo'lsa-da baxtli his qilgandim. Qancha qolishga urinmayin Mary ketishimni talab qildi. Shunda yaqinroqdagi shaharchadan benzin topib, yana qaytib kelish sharti bilan qishloqdan chiqdim. U xayrlasharkan chehrasida hamon mahzunlik hukm surardi. Albatta, men ham bundan xursand emasdim.

Tun qanchalik zimziyo bo'lmasin, to'xtamay tavakkaliga ketaverdim. Tepalik ortida kichik bir shaharchaning chiroqlari ko'rinishi bilan tanamdagi charchoq ham tark etgandek bo'ldi. Benzin xarid qilarkanman, garajdagi kishidan haligi qishloqning nomini so'radim. U hayron bo'lib qaradi. Men unga o'sha qishloq, undagi eski uylar, odamlar, ularning kiyimlari, ichimliklari haqida gapirib berdim. Tag'in u menga telbaga tikilganday tikilib, shunday dedi:

— U yerda qadimda bir qishloq bo'lgan, ammo hozir hech qanday qishloq yo'q. O'sha qishloq haqida qo'rqinchli hikoyalar butun shaharcha bo'ylab kezib yuradi.

Uning aytishicha, qachonlardir o'sha qishloqda katta yong'in bo'lgan, qishloqdagi barcha odamlar halok bo'lgan. Hozir u yerda na bir tirik jon, na qishloq bor.

— U fojia qanday sodir bo'lgan? — sabrim chidamay savolga tutdim.

— Oliver Kromvel (XVII asrda yashagan ingliz siyosatchisi, qo'mondoni) qishloq aholisi qiroлга yordam bergani uchun jahli chiqqan va qishloqqa o't qo'yg'an.

— Bu bo'lishi mumkin emas, axir urush 350 yil oldin bo'lgan-ku! — dedim tutoqib. Keyin ularning uvadasi chiqqan kiyimlari, xaroba uylarini ko'z oldimdan o'tkazdim. — Ammo, janob, men umuman tushunmayapman. Axir bir soat oldin u yerdagi odamlar bilan suhbatlashdim, ovqatlandim.

— Qishloq haqida bir qiziq afsona bor. Har o'n yilning faqat bir kunida qishloq o'zining avvalgi eski joyida paydo bo'lar ekan. Omadingiz kelsa, o'sha kuni qishloqni uchratishingiz mumkin. Ammo tong otmasdanoq u yerni tark etish kerak, aks holda umrbod qolib ketish mumkin...

Benzin sotuvchining aytganlari haqiqat ekan. Axir Mary ham sen ketishing kerak, degandi. U men uchun qayg'urgan ekan. O'sha qishloqqa qaytib bordim. Chindanam u yerda hech nima yo'q. Takror va takror izladim. Faqatgina gullarni, daraxtlarni uchratdim xolos. Mary yo'q edi...

Ikki oygina vaqt qoldi. Men qishloqning yana o'z o'mida paydo bo'lishini sabrsizlik bilan kutayapman. Bu safar hech qachon qishloqdan chiqib ketmayman. Men o'sha qishloqda, o'sha uydagi bir umr baxtlarga to'lib Mary bilan yashayman.

Ingliz tilidan

Xo'jaobod tumanidagi

6-maktab o'qituvchisi Gulrux SHODIYEVA tarjimai.

Donishmand adib Asqad Muxtor o'z vaqtida: "Toqqa chiqish uchun faqat istakning o'zi kamlik qiladi, cho'kich kerak, arqon kerak, ildamlig-u matonat kerak...", deb yozgan edi. Muayyan matonat bilan har qanday odam uchun bundan mukammalroq o'g'it bo'lmasa kerak. Misol uchun, o'qituvchilik kasbini olaylik. Zamonaviy talim talablariga ko'ra, bu kasb egasi bo'lish uchun faqat bilim va nutqning o'zi yetarli emas. Yana qanday sifatlar zarurligini sohaning tajribali ustalari bemaol aytib bera oladi.

"Yomon yiqilmadingmi, o'g'lim?"

Bag'rida uch mingdan ziyodroq bilimtalab bolani va shu songa muvofiq keladigan o'qituvchilar jamoasini sig'dirgan katta maktabni boshqarish uchun esa insonga qancha fazilatlar kerak bo'lishini boshdan o'tkazmagan odam tasavvur ham qilolmaydi. Boshqarish nima, uni nainki Termiz shahrida, balki butun viloyatda ibratli ta'lim maskanlaridan biriga aylantirish uchun rahbar qanday bo'lmo'g'i lozim? Bu savolga javob topish uchun rahbarlik mashaqqatini boshdan o'tkazish shart emas: Gulnoza Haydarovaday inson bilan yelkama-yelka ishlab ham his qilish mumkin buni.

Gulnoza Haydarovanning har bir kuni ibratli voqealarga boy. Har kuni uning bir fazilatli namoyon bo'ladi.

Bir kuni maktabimiz koridorida ziddiyatliroq voqeaning ustidan chiqib qoldim. Bir ayol maktabimizning tajribali o'qituvchilaridan birini to'g'ri ma'noda burchakka qisib, "oborib-obkelmoqda" edi. Bunday ko'ngilsiz holga tomoshabin bo'lish noqulay, afsuski, aralashib ham bo'lmasdi. Bitta qiladigan yordamimiz: birdan direktorimizga telefon qildik. U kishini yosh bo'lsa ham ba'zan OPA deymiz. Bunday munozaralarning ko'pinisi boshidan o'tkazgan opa shoshilmasdan kabinetidan chiqdi-da, tasodifan o'tib ketayotgan kishi bo'lib, boyagi voqeaning "ustidan chiqib" qoldi. Rahbar sifatida har ikkala tomonning arziga quloq soldi. So'ng mulozamat bilan da'vogar ona va o'qituvchini kabinetiga taklif qildi. O'sha kuni zalda navbatchi edik, chog'i, biror o'n daqiqa o'tar-o'tmas, boyagi janjalkash onaxon chiqib keldi. Ichkarida nima gap-so'z bo'lgan - bilmaymiz, lekin onaxonning qo'li ko'ksida: "Shunday qiling, opajon. Ko'plashib tarbiyalaymiz bu shumtakani. Rahmat, opajon"lab chiqib ketdi. Ana shunda so'zning nimalarga qodirligini, rahbarlik salobatining qanchalik mo'jizakor ekanligini his etganmiz.

Katta jamoaning hayotida ibratli voqealar ko'p bo'ladi-da. Bir safar uchto'rt o'qituvchi bola tarbiyasi haqida fikrlashib turgandik. Yoshroq, binobarin qiziqinroq hamkasabimiz: "Qarsillatib urish kerak, ana shundagina hurmat qiladigan bo'ladi o'qituvchini", degan mazmunda gapirib, hammani og'ziga qarab turgandi. Tasodifni qarangi, yonimizdan yugurib o'tib ketayotgan mayda sinf o'quvchilaridan biri qo'qilib ketdi-da, polga yuztuban yiqildi. Mushtumzo'r kasbdoshimiz darhol u yajzalamoqqa chog'landi. Shu payt qayverdandir Gulnoza Hakimjonovna paydo bo'ldi-da, bolani mehr bilan turg'azdi. Ust-boshini qoqib, mehribonlik bilan ahvol so'radi: "Yomon yiqilmadingmi,

o'g'lim? Bundan keyin yugurmagin, xo'pmi!" Endi yig'lamoqqa shay bo'lib turgan bola shunchalik uyaldiki, hatto boshini ko'tarolmay "xo'p" ishorasini qildi. Direktorning mehri har qanday jazodan ko'ra ta'sirliroq va esda qolarliroq chiqqanini har birimiz ichimimizdan sezib turardik.

U kishi jamoaning har bir a'zosiga avvalo inson sifatida qaraydi. Ilgarilari rahbar deganda xodimlarga baqirgancha tol mushtlaydigan badqovoq odamni ko'z oldimga keltirar edim. Gulnoza Haydarova boshliq jamoada ishlab iqrar bo'lasizki, odamlarning hurmatini samimiylik bilan ham qozonish mumkin ekan. Biz o'zaro OPA haqida gaplashganimizda har birimiz u kishidan ko'rgan yaxshiliklarimizni aytib charchamaymiz. Eng qizig'i, bu haqda hech qachon jar solmagan, bergan yordamlarini hech kimga joriyona qilmagan.

Ba'zan kasbimizning qiyinchiliklari haqida gapirib, "har bolaning fo'li har xil", deymiz; yig'ilishlarda kamchiliklarni beayov tanqid qilamiz; ish yuzasidan xatoga yo'l qo'ysak, ichimizda "Direktorimiz bor-ku", degan tasalli tuyamiz, ammo burchalik zalvorli yukni yelkasida ko'tarib yurgan INSONning mashaqqatlarini tasavvur ham qilmaymiz. Yosh holiga o'zbek va rus tillarida dars olib boriladigan ulkan jamoani boshqarish, o'nlab millatlariga mansub ota-onalar bilan til topishib ketish, o'qituvchilar va bolalarning birdek mehri qozonish hammaning ham qo'lidan kelaveradigan ish emasligi haqida o'ylab ham ko'rmaymiz.

Gulnoza Haydarova, garchi o'zbek va rus tillarida bemaol dars o'ta oladigan magistr darajasidagi mutaxassis bo'lsa ham, topgan obro'-e'tiboriga nisbatan ancha yosh: 2011-yili Termiz davlat universitetini tugatib, ikki yil ishlagach, magistraturaga o'qishga kirgan. Dastlab shahardagi 31-umumta'lim maktabida direktor bo'lib ishladi. 2017-yildan beri 10-maktabni boshqarib kelmoqda.

Inson sifati haqida gap ketganda misollarning yakuni bo'lmaydi. Gulnoza Haydarovadek zamonaviy ayol-rahbarning ibratli jihatlarini zamonoshlarga yetkazish uchun esa nazarimda butun boshli kitob kerakday. Biz kitoblarga loyiq bo'ladigan hurmatimizni uchtagina so'z bilan ifodalashga o'rganib qolganmiz: "Bizning direktor ana shunday inson!"

Mavluda AHROROVA,
Dilsora OSTONAQULOVA,
Termiz shahridagi
10-maktab o'qituvchilari

Sinab ko'ring

“Narvoncha” metodi

O'quvchilar matematika fanini yaxshi o'zlashtirishiga yordam beradigan didaktik o'yinlardan tavsiya qilmoqchiman.

“Narvoncha” o'yinida doskaga “o't o'chirish” narvonchasining rasmi chiziladi. Narvonning har bir tayoqchasi misollar yoziladi. O'quvchilar narvonchaga chiqishi uchun berilgan misollarni yechishi lozim. Bolalar guruhlariga bo'lingach, o'qituvchi javoblarini qayerga yozish kerakligini tushuntiradi. O'quvchilar guruhdoshi bajarayotgan amallarni kuzatib turadi. Agarda kimdir berilgan misolni xato bajarsa, boshqa o'quvchi darhol qo'l ko'tarib, uning narvonchadan yiqilib tushganini aytadi. O'yinni yanada murakkablashtirish ham mumkin. Bunda guruhlar boshqa guruh o'quvchisini kuzatadi. Masalan, 3-guruh o'quvchilari 2-, 2-guruh 1-, 1-guruh esa 3-guruh o'quvchilarini. Bu guruhlar faolligi va misollarni yechayotgan o'quvchilarning mas'uliyatini oshiradi. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar narvonchadan “yiqilishi”ning oldini olish uchun ularga yengilroq misollar berish tavsiya qilinadi. Bu o'yin bolalarga doskada bajarilayotgan amallarni yaxshi tushunish imkonini beradi, esda saqlab qolinishi qiyin bo'lgan amallarni puxta o'rganib oladi.

“Nima o'zgardigi?” ta'limiy o'yini o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini mustahkamlaydi. Narsalarning o'rnini almashtirish orqali ularning sezgirligi,

zukkoligi va topqirligi tekshiriladi. O'yin qoidasiga ko'ra o'qituvchi stolga turli geometrik shakllar qo'yadi (o'yinchoqlar, o'quv qurollari, rasmlar, matematik formulalar, geometrik shakllar va boshqa o'quvchilarni qiziqtiradigan narsalar bo'lishi mumkin). Quyidagi topshiriqlar beriladi:

1-savol: Diqqat bilan qarang-chi, stol ustida qanday geometrik shakllar turibdi?

2-savol: Ular nechta?

3-savol: Ko'zingizni yuming? (o'qituvchi ikkita qo'shni shaklning o'rinlarini almashtiradi).

4-savol: Endi nima o'zgardigi?

5-savol: Qaysi shaklning o'rnini almashtirish toping.

6-savol: Kvadrat bilan uchburchakni farqlay olasizmi?

7-savol: Kvadrat bilan to'rtburchakni farqlay olasizmi va hokazo.

O'quvchilar diqqat bilan qarab o'rnini almashtirilgan narsalarni topib, aytishi kerak. O'yin shu tariqa 3-4 marta turli usullarda davom ettiriladi. Bu o'yinni ta'til davrida ota-onalar farzandlari bilan birga o'ynashi ham mumkin. Nafaqat matematika, balki boshqa fanlar doirasida ham tashkil etsa bo'ladi.

Sevara ZARIPOVA,
Gurlan tumanidagi
19-maktab o'qituvchisi

So'rab ko'rdim tabiblardan...

Erta soch oqarishidan qanday qutulish mumkin?

Erta soch oqarishiga boshda hosil bo'ladigan quruqlik sabab bo'ladi. Sochda bir dona oqni qoldirmay davolashga ikki-uch oy ketadi (albatta, yosh bunda muhim). Uni uzum va qovun pishganda davolash maqsadga muvofiq. Chunki uzum ham, qovun ham ho'l is-siqlik. Soch quruq sovuqlikdan oqaradi (ba'zan nogahoniy qo'rquv, stredan ham). Uzum va qovun sochi oqargan dardmandning ovqatlaridan biridir. Gi-yoh va tolqondori ichish kerak bo'ladi.

Soch oqarishini to'xtatish va umuman oqarmasligiga Ibn Sinoning mash-

hur, qariyb hamma dardlarni birin-ketin yo'qotib boruvchi, va eng qizig'i, parhez qilishni talab qilmaydigan (ko'ngli tortgan hamma ovqatni yeydi, parhez yo'q) dorisidir. U dorini ichishda yosh chegaralanmagan (60 yoshdan oshgan bo'lsa, foydasiz). U qora soch o'stirmaydi, ammo umr so'ngigacha soch qoraligini saqlab qoladi. Uni tayyorlashga juda ko'p vaqt kerak bo'ladi.

Savolga O'zbekiston xalq tabobati assotsiatsiyasi a'zosi, tabib O'rol O'ZBEK javob berdi.

Muqaddas burch

Asrlar silsilasidan omon o'tib kelayotgan ona tilimiz — o'zbek tili davlat tili maqomini olganiga 31 yil bo'lyapti. Inson 31 yoshida hayotning turli chig'iriqlarida toblanib, komil shaxs sifatida shakllanadi. Tilimiz ham 31 yil davomida tilshunos olimlar sa'y-harakati bilan yanada mukammallashib bordi.

Har bir millatning dunyoda borligini namoyon qilib turuvchi narsa — bu ona tilidir. Milliy til yo'qolsa, dunyoda bu millatdan nom-nishon qolmaydi. Milliy tilni asrab-avaylab, uni bezavol keying avlodga yetkazish dolzarb masaladir.

Hazrat Navoiy “Muhokamat ul-lug'atayn” asari bilan turkiy til imkoniyatlarini amaliy jihatdan asoslay oldi. Har bir so'zdagi ma'no nozikliklarini juda ishonchli tarzda, mantiqiy dalillar bilan isbotladi.

Navoiy zamondoshlari tilidagi faol va nofaol so'zlarni o'z asarlariga kiritib, ularning bizning zamonamizgacha yetib kelishini ta'minladi. Darhaqiqat, Navoiy dahosiga hayrat bilan boqmaslikning iloji yo'q. Uning milliy tilni saqlash uchun ko'rsatgan sa'y-harakatlari o'z davrida ham e'tiborsiz qolmadi. Hukmdor Husayn Boyqaro turkiy tilda asarlar yaratish haqida maxsus farmon chiqardi.

Milliy tilni asrab-avaylab, yosh avlod qalbida bu tilga nisbatan iftixor tuyg'usini shakllantirish burchi bizning zimmamizda, aziz hamkasblar. Unga munosib bo'laylik!

Dilshoda JABBOROVA,
Gulnora TANGRIYEVA,
Boysun tumanidagi
13-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari

“Tilsiz yov” dan ehtiyot bo'ling!

Yong'in — tilsiz yov. U qisqa vaqtda insonning yillar davomida mashaqqat bilan erishgan moddiy mulklarini kulga aylantiradi, xalq xo'jaligiga zarar yetkazadi. Undan ajralib chiqadigan tutun tarkibidagi zaharli gazlar nafas olish uchun zarur bo'lgan havo tarkibini buzadi, shusiz ham kundan kunga omonatlashib borayotgan ozon qatlamining yemirishiga “hissa” qo'shadi. Eng yomoni, kishilar og'ir jarohatlanishi, hatto shu sababli vafot etishi ham mumkin.

Respublikamizning har bir fuqarosi jamoat va davlat mulkini ko'z qorachig'idek saqlashi va uning xavfsizligi uchun qayg'urishi darkor. Shuning uchun sanoat korxonalarida yong'inning oldini olish va yong'in o'chirish tadbirlari keng jamoatchilikka suyangan holda, sexlardagi har bir ishchining ishtirokida olib boriladi. Sanoat korxonalarida yong'in muhofazasini tashkil qilish hamda yong'in chiqishining oldini olish, yong'in o'chirish texnikasi va o'chirish vositalarini

doim shay holda saqlash, yong'in chiqqan taqdirda o'chirish ishlarida faol qatnashish, xalq mulkini asrab-avaylash borasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishni taqozo qiladi.

Har birimiz tilsiz yovdan o'zimizni va yaqinlarimizni himoyalaylik!

Majid BO'RIXONOV,
Mirobod tumani FVB P va
NB inspektori, kapitan

Maxmudova Musharraf Mirraxmatovnaning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Milliy sport turini qo'llagan holda oliy ta'lim muassasalari talaba qizlarining jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 16-iyul kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.

Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76;

e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Toshkent arxitektura-qurilish kasb-hunar kolleji faoliyati 2020-yil 1-avgust sanasidan

TUGATILADI.

Da'vo va arizalar Mirobod tumani, Yangi-zamon 3-tor ko'chasi, 1-uyda qabul qilinadi.

Murojaat uchun telefonlar: (71) 283-29-73, (90) 987-99-47.

Yashnobod temir yo'l kasb-hunar kolleji faoliyati 2020-yil 1-avgust sanasidan

TUGATILADI.

Da'vo va arizalar Yashnobod tumani Asalobod ko'chasi, 113-uyda qabul qilinadi.

Murojaat uchun telefonlar: (71) 294-42-43, 294-42-39, (93) 598-52-52.

Yashnobod qurilish kasb-hunar kolleji faoliyati 2020-yil 1-avgust sanasidan

TUGATILADI.

Da'vo va arizalar Yashnobod tumani Asalobod ko'chasi, 113-uyda qabul qilinadi.

Murojaat uchun telefonlar: (71) 297-82-37, (90) 318-48-91.

Mirobod kompyuter texnologiyalari kasb-hunar kolleji faoliyati 2020-yil 1-avgust sanasidan

TUGATILADI.

Da'vo va arizalar Mirobod tumani, Quddis ko'chasi, 12-uyda qabul qilinadi.

Murojaat uchun telefonlar: (71) 283-41-54, (99) 872-27-54.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Biologiya fakulteti “Biofizika” kafedrasida professori, biologiya fanlari doktori, akademik

Bekjon TOSHMUHAMEDOVning

vafoti munosabati bilan marhumning yaqinlari va oila a'zolariga ta'ziya bildiradi.

“Ma'rifat”—“Учитель Узбекистана” gazetalarida tahririyati jamoasi tahririyatning sobiq bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi

Ahmadjon DOLIMOVning

vafoti munosabati bilan marhumning yaqinlari va oila a'zolariga ta'ziya bildiradi.

TOSHKENT SHAHAR XALQ TA'LIMI BOSH BOSHQARMASI

tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri va bosh boshqarma tasarrufidagi quyidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarining direktori lavozimlariga tanlov e'lon qiladi:

1. Mirzo Ulug'bek tumani xalq ta'limi bo'limi mudiri.

Tanlovda:

Xalq ta'limi bo'limi mudiri lavozimiga tanlovda ishtirok etuvchi nomzodlarga qo'yiladigan malaka talablari:

- oliy ma'lumot;
- pedagogika sohasida kamida 5 yillik ish staji;
- rahbarlik lavozimida kamida 3 yil ish staji;
- yetakchilik fazilatlarining mavjudligi, shaxslararo munosabatlarni o'rnatish qobiliyati, tashkilotchilik va mas'uliyatlilik;
- yakka tartibda va jamoada ishlash, nizolarni hal qilish qobiliyati;
- tashabbuskorlik, ijodkorlik, stressga chidamlilik, qarorlarni qabul qilish qobiliyati;
- tadbirkorlik ko'nikmalari;
- MS Office, Internet kompyuter dasturlarini mukammal bilishi;
- o'zbek va rus tillarini bilishi, ingliz tili — maqsadga muvofiq.

Tanlovning saralash bosqichlari:

- test sinovlari (tanlovning birinchi bosqichi uchun IQ, EQ, menejerlik ko'nikmalarini baholovchi test);
- amaliy topshiriq — taqdimot tayyorlash.

Tanlov ikki bosqichda:

- birinchi bosqich — xalq ta'limi sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilish darajasi, IQ, EQ, menejerlik ko'nikmalarini baholovchi test;

- ikkinchi bosqich — talabgorning nazariy va amaliy bilimlarini aniqlash maqsadida suhbat.

2. Umumiy o'rta ta'lim maktabi direktorlari lavozimlariga:

1. M.Ulug'bek tumanidagi 211-"A" umumiy o'rta ta'lim maktabi.
2. Olmazor tumanidagi 133-umumiy o'rta ta'lim maktabi.
3. Sergeli tumanidagi 68-, 322-, 331-umumiy o'rta ta'lim maktablari.
4. Chilonzor tumanidagi 138-, 195-"A" umumiy o'rta ta'lim maktablari.
5. Shayxontohur tumanidagi 85-, 316-umumiy o'rta ta'lim maktablari.
6. Yunusobod tumanidagi 72-, 260-umumiy o'rta ta'lim maktablari.
7. Yakkasaroy tumanidagi 26-umumiy o'rta ta'lim maktabi.

Tanlovda:

- kamida bakalavr darajasiga ega;
- ta'lim sohasida kamida 5 yillik pedagogik staj va rahbarlik lavozimida
- 2 yil ish stajiga ega fuqarolar ishtirok etishi mumkin.

Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan shaxslar "Umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori lavozimiga tanlov o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan tegishliligi bo'yicha bosh boshqarmaga quyidagi hujjatlarni, jumladan elektron shaklda taqdim etadi:

- komissiya nomiga ariza;
- pasport nusxasi;
- so'rovnomasi;

- oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom yoxud vakolatli davlat organining xorijiy ta'lim muassasasida olingan oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatning nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini qayd etish) to'g'risidagi guvohnomasi nusxasi;

- mehnat daftarchasining nusxasi yoki ish stajini tasdiqlovchi "Elektron mehnat daftarchasi" tizimidan ko'chirma.

Tanlov ikki bosqichda:

- birinchi bosqich — xalq ta'limi sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilish darajasi, IQ, EQ, menejerlik ko'nikmalarini baholovchi test;
- ikkinchi bosqich — talabgorning nazariy va amaliy bilimlarini aniqlash maqsadida suhbat.

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan sanadan boshlab 15 kun ichida qabul qilinadi.

Hujjatlarni quyidagi manzilga topshirishingizni so'raymiz:

Nomzodlar o'z ma'lumotlarini Xalq ta'limi vazirligining "Maktab ta'lim jarayonini boshqarish tizimi" bazasidagi "Bo'sh ish o'rinlari" bo'limi (ish.uzedu.uz veb-sayti)ga elektron shaklda taqdim etilgan ariza va unga ilova qilinayotgan har bir hujjat haqiqiyliги saqlanishini ta'minlovchi alohida fayl ko'rinishida joylashi kerak. Har bir fayl o'lchami 10 Mb.dan oshmasligi lozim.

Hujjatlar "PDF" (portable document format) formatida skaner qilingan holda jo'natiladi.

Ma'lumot uchun tel.: (71) 237-08-17.

E-mail: toshkent_shtbb@xtv.uz

Tanlov asosida qabul qilinadi

ANIQ FANLARGA IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMTA'LIM MAKTABI

2020/2021-o'quv yili uchun 5-sinfga iqtidorli o'quvchilarni qabul qiladi. Hujjatlar joriy yilning 1-iyulidan 1-avgustigacha onlayn tarzda qabul qilinadi.

Kerakli hujjatlar: o'quvchining tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma nusxasi, baholar tabelining tasdiqlangan nusxasi, ota-ona yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning arizasi.

Maktab veb-sayti: <http://afidum.310.zu.uz/> e-mail: iqtisod@xtv.uz

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sezbor dahasi, AFIDUM.



Murojaat uchun tel.: (71)-240-51-18, (97)-752-83-93. Hujjatlarni taqdim etish uchun telefon raqami: (90) 317-75-69.

TABIY FANLARGA IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMTA'LIM MAKTABI

Tanlov asosida 5-sinfga iqtidorli o'quvchilarning hujjatlarini qabul qiladi. Hujjatlar joriy yilning 1-iyulidan onlayn tarzda qabul qilinadi.

Kerakli hujjatlar: o'quvchining tug'ilganlik to'g'risida guvohnoma nusxasi, baholar tabelining tasdiqlangan nusxasi, ota-ona yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning arizasi.

Maktab elektron pochta: tfidum@xtv.uz



Murojaat uchun tel.: (90)-131-41-12. Hujjatlarni taqdim etish uchun "Telegram" raqami: (94) 666-40-49.

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. V-4217. Tiraj 8937. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxonaga — (71) 233-50-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi — (71) 233-42-92 (faks); (71) 233-56-00.



"Marifat" dan materiallarni ko'chirib boshish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Mahmud Rajabov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonada manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'zA yakuni — 21.30 Topshirildi — 22.40

1 2 3 4 5 6